Aynan Temurning avlodi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Samarqand haqida quyidagi fikrlar bayon qilingan: "Tangri taolo inoyati bila Samarqand shaxri va viloyati muyassar va musaxxar bo'ldi.

Rubi maskanda Samarqandcha latif shahar kamdur. Beshinchi iqlimdandur. Tuli 99)st(ramzi nuzhumiy 56) nw (darazha va daqiqadur, arzi 40) nw (darazha va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'i qahr va g'alaba. Bila unga topmagan uchun baldan mahfuza derlar Samarqand hozirgi amirul-muminin Usmon zamonida musulmon bulg'ondur. Shogha mashurdur Samarqandni Iskandar bino qilgandur Mug'ul va ulusi Temurbeklin burun Temurbekdek ulug' podshoh qilgan emas. Qo'rg'onini fasilning ustidin buyur-dumkim, kadam urdilar Un ming olti yuz kadam chikti.

Mamuraning kanorasida voqib bulibtur, Sharqi Farg'ona va Koshg'ariy, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shoxruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Termiz. Kuxak soyi shimolidan oqar. Samarqanddin ikki quruq bulgay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur. Kuxak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Kuxak soyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg'om suvi derlar. Samarqandni janubidin oqar, Samarqanddin bir shariy bulg'oy. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila mamurdur. Buxoro va Qorakulchakim, o'ttiz-qirq yig'och yulga yuvuqlashur, Kuxak soyi bila mamur va mazrurdur. Mundoq ulug' daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-turt oy Buxoroga suv yetmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jamiki mevasi xub bulur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdir:sebi Samarqand va Soxibiy Samarqand. Qishi mahkam sovuqdur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlari yaxshi havosi bor, agarchi Kobulcha yo'qdur.

1. Temurbekning va Ulug'bek Mirzoning imoroti va bog'oti Samarqand mahallasida ko'pdur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonlik, Ko'ksaroyga mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana oxanin darvozasiga yopiq qalaning ichida bir masjidi juma solibdur, sangin, askar Hindistondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni "Va iz Yarfau Ibroximal-qavoida (ilo oxiri i) > andoq ulug' xat bila bitibdurlarkim, bir qurux yopiq yerdin o'qisa bulur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog' solibdur, birikim yiroqroqdur, Bog'i Buldudur, yopiqrog'i Bog'i Dilkushodir. Andin Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yog'ochlari ektiribdur. Dilkushoda xam ulug' ko'shk solibdur. Ul ko'shkda Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar. Yana pushtak Kuxakning domanasida Konigillik qora suvning ustidakim bu suvni Obiraxmat derlar, bir bog' solibdur. Naqshi jahonga mashhur. Men kurgan mahalla bu bog' buzilib erdi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog'i Chinordur, qal'aga yopiqdur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Behishtdir. Temurbekning nabirasi, Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh Qo'rg'onida-chaqarda bir madrasa solibdur. Temurbekning qabri va avlodi xar kimki Samarqandda podsholik qilibdur alarning qabri ul madrasadadur.

Ulug'bek Mirzoning imoratlariddin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi kup ulug' gumbazdur".

Samarqand buyuk ipak yo'li orqali buladigan savdoda ancha muhim o'rin tutgan, xususan Samarqand hududidan buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga jun gazlama, gilam, zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan. Amir Temur davrida Samarqanddan Pekingacha olti oy davomida yetib borilgan. Kuzda yo'lga chiqqan karvon keyingi yil bahorining oxirida yoki yozing boshida manzilga yetib olgan.

Aynan Amir Temur vorislari davrida Turkistondan Xitoyga 107marta elchilar borgan. Bundan tashqari Xitoy manbalarida yozilishicha usha davrda Samarqandlik savdogarlar faqat Pekin emas balki Xitoyning boshqa shaharlaridagi bozorlarida ot sotishgan. Chunonchi, 1390-yilda erta bahorda aynan Samarqandlik savdogar Sho Jurali (Shachieyr Aliy) Lyangchjou shaxrida 670ta ot sotgani ma'lum. Samarqanddan Xitoyga yuborilgan elchilar bilan birgalikda katta savdogarlar guruhlar ham qushilib borgan.

Tayzunning Amir Temurga yo'llagan bir maktubida bayon etilishicha, ayrim Samarqandlik savdogarlar Xitoyga kelganidan so'ng vataniga qaytmay, savdo ishlari bilan shug'ullangan va ayrimlari uy-joy sotib olib, bola-chaqali bo'lib usha yerda yashab qolgan. Bu kabi ma'lumotlar ikki buyuk imperiya davrida Buyuk ipak yo'li muhim o'rin tutgani va bu yo'l orqali bo'ladigan savdoda Samarqandlik savdogarlar janbozlik ko'rsatganini aks ettiradi.

XVI asrda Temuriylardan keyin Shayboniylar sulolasi keldi va shahar Buxoro xonligiga kirdi. XVII asrdan boshlab Samarqandni Ashtarxoniylar boshqargan, aynan

Ashtarxoniylar davrida Samarqand iqtisodiyot inqirozga yuz tutadi. XVIII asr o'rtalariga kelib Samarqand mang'itlar qo'l ostiga o'tadi. Shaharni tiklashga o'rinishlar aynan shu sulola davrida boshlanadi. Muhammad Rahimbiy shaharni tiklash ishini unga suv chiqarishdan boshlaydi, lekin bu tadbiri aholining nihoyatda kamayib ketganligi bois amalga oshmay qoladi. Amir Shohmurod esa bu masalada keskin choralarni qo'llaydi. U aynan Samarqandni tiklash va aholi sonini ko'paytirish uchun boshqa shaharlardan majburiy ravishda aholi ko'chirib keltiradi. Shaharda katta bunyodkorlik ishlari uning vafotidan keyin ham amalga oshirilsada, Samarqand asosan uning davrida qaytadan bunyod etiladi.

Ahmad Donish shunday deb yozgan edi: "Samarqandning hozirgi obodonchiligi 1780-yil, ya'ni Shohmurod davridan boshlangan bo'lib, 1809-yillarda bir shahar yo'siniga kirgizilgan".

XIX asr boshlarida Samarqand baland devor bilan o'ralgan. Shaharga 6ta darvoza orqali kirilgan. Shaharda ko'plab bog'lar, ariq-zovurlar va hovuzlar, karvonsaroylar va hammomlar ishlab turgan. Kuchalar shaharning 6ta darvozasini Registon maydoni bilan bog'lagan. Shohmurod va unday keyingi amirlar davrida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari natijasida shahar aholisi 25-30ming kishiga yetgan.

1868-yil Samarqand rus qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. Bir yil o'tgach, Samarqand shahri tashkil etilgan Samarqand viloyatining ma'muriy markaziga aylanadi. Qizig'i shundaki, 1925-1930-yillarda Samarqand qisqa vaqt yana poytaxt bo'ldi.

Hozirgi kundagi zamonaviy Samarqand viloyati 1938-yilda tashkil topgan. Amir Temur ordeni sohibi. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon vodiysining markaziy qismida (Darg'om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. O'rtacha 695 metr balandlikda. Toshkentdan 300km uzoqlikda joylashgan, Shahar aholisi Shovdor va Bog'ishamol ariqlaridan suv oladi. Iyulning o'rtacha harorati 25,9°C, eng baland harorat 40°-42°C, yanvar o'rtacha harorati 0,2°C, eng past harorat - 26°C. Maydoni 120km.kv. Aholisi 4mlndan ziyod. Aholisi bo'yicha O'zbekistondagi aholisi 4mlndan oshgan viloyatlardan 2tasidan biri Samarqand.

Samarqand yurtimizdagi turizm markazlaridan biri bu yerga yiliga o'rtacha hisobda mahalliy aholi bilan qushib hisoblaganda 3mlndan ortiq turist tashrif buyuradi. Birgina Registon ansambilining uziga yil davomida millionlab turistlar tashrif buyuradi. Samarqand o'zining kuplab mahsulotlari bilan, dunyoga mashhur, ayniqsa Samarqand noni bular orasida ancha mashhurroqdir. Samarqandning shoyi gazlamalari, ipak matolari jahon bozorida xaridorgir mahsulolar qatoriga kiradi, Yana Samarqandda sifatli qog'oz ishlab chiqariladi va bu qog'oz o'rta asrlardan buyon ishlab chiqarib kelinmoqda.

Samarqand tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanadi. Bu yerda ko'plab tarixiy obidalar joylashgan va bu obidalar turistlar e'tiborini tortmay qolmaydi.

1. Registon ansambili:Ulug'bek madrasasi 1417-1420-yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan ilm-ma'rifat markazi sifatida qurilgan, bu yerda astronomiya, matematika va boshqa fanlar o'qitilgan.

2. Sherdor madrasasi 1619-1936-yillarda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurdirilgan. Ma'nosi "she'rlar uyi".

3. Tillakori masjidi 1646-1660-yillarda bu ham Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurdirilgan bo'lib ma'nosi "oltin bilan qoplagan" ma'nosini anglatadi.

4. Imom Buxoriy maqbarasi 1997-yil 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tashabbusi bilan Imom Buxoriyning 1225yilligiga bag'ishlab qurilgan.

5. Bibixonim 1399-1404-yillarda Amir Temur tomonidan qurdirilgan. Qurilish sababi Hindistonga qilingan g'alabali yurish tufayli g'alabalarining ramzi sifatida qurilgan.

6. Shayboniylar daxmasi-taxminan Shayboniyxon tomonidan qurilgan, bunday nom bilan atalishiga sabab 1510-yil Ismoil Safaviy bilan bo'lgan urushda halok bo'lgan Shayboniy, va boshqa shayboniy sulton va malikalarning bu yerga daft etilishi. Bu yerga Mahmud Sulton, Temur Sulton, Yodgor Sulton, Qutlig' Muhammad Sulton, Abulxayr Sulton, Shaxriboni xonim, shoh Sulton Xonim, Suyunchi xo'ja dafn etilgan

7. Go'ri Amir ma'nosi-"Hukumdor qabri". Dafn etilgan shaxslar:Amir Temur, Muhammad Sulton, Minonshoh Mirzo,Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Said Baraka.

8. Shohizinda Qoraxoniylar va Temuriylar a'yonlarining maqbaralaridan tashkil topgan.

9. Hazrati Xizr masjidi VII asrda qurilgan.

10. Islom Karimov maqbarasi 2016-yil qurilgan. Bu yerda 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning qabrlari joylashgan.

Samarqandni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asr oxirlarida boshlangan, 1895-yil sharqshunos olim V. V. Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan "Turkiston arxeologiya havaskorlari togaragi" a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasi deb qarab, unda keng ko'lamdagi arxeologik qazishma ishlarini olib boradilar. Vasiliy Vyatkin, N.I.Vaselovskiylar o'tkazgan arxeologik qazishmalar natijasida turli xildagi buyumlar topilib muzeyga berildi. 1908-yilda V. L. Vyatkin Samarqand chekkasida joylashgan Ulug'bek rasadxonasining o'rnini aniqladi va qazish ishlarini o'tkazadi. 1912-1913,1929-1930-yillarda V. L. Vyatkin, 1912-yilda M. Ye. Masson Afrosiyobda qazish ishlarini olib bordilar. A. I. Terenojkin 1945-1948-yillarda Samarqandni 2500yillik tarixga ega deb belgilaydi;shahar tarixi davrlashtiriladi.

1950-yillardan boshlab Afrasiyobda muntazam arxeologik qazishmalar o'tkazish, ayniqsa 1958-yildan V. A. Shishkin rahbarligida, 1966-yildan boshlab esa Yahyo G'ulomov boshchiligida faollashdi.

XULOSA

Samarqand - asrlar davomida sharq va g'arb sivilizatsiyalarini bog'lagan, Tarix, madaniyat va zamonaviylik uyg'unlashgan shahar. Uning qadimiy obidalari, betakror san'ati va boy an'analari o'ziga xos jozibaga ega. Bugungi kunda esa Samarqand nafaqat o'zining tarixiy shon-shuxrati bilan, balki zamonaviy rivojlanish yo'li bilan ham barchani hayratga solmoqda. Bu shahar o'zining boy merosi va kelajakka intilishi bilan, doimo sayyohlar, olimlar va san'at ixlosmandlari uchun ilhom manbai bo'lib qolaveradi. Samarqand qadim zamonlardan katta davlatlarning iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgani kabi bugungi kunda ham O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ablat Xo'jayev "Buyuk ipak yo'li" - Toshkent-2007, 199-200
- 2 Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" - Toshkent-1960, 103-108
- 3.Usmon Jo'rayev, Qamar Usmonov, Gulira'no Jo'rayeva, Naim Norqulov "O'zbekiston tarixi" - Toshkent-2019, 68-69

SUN'IY INTELLEKTNI HARBIY MAQSADLARDA QO'LLASH

Farmanov M.G

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik Qo'shinlar kundalik faoliyati va
qo'shinlarni boshqarish kafedrası, Aloqa va axborot tizimlari sikli
o'qituvchisi, podpolkovnik*

AnnOtatsiya: *Ushbu maqolada qo'shinlarni boshqarish tizimlariga, qurol-yarog, harbiy va maxsus texnikalar avtomatizatsiyasida suniy intellekt tizimlarini qollash yonalishlari, harbiy maqsadlarda suniy intellekt tizimlarini qollashda hozirgi kundagi mavjud muammolar tahlili, unga qoyilgan talablar, suniy intellekt tizimlarini yaratishda bir qator asosiy texnologiyalarni ishlab chiqish va uni harbiy maqsadlarda qollashning ijobiy natijalari boyicha takliflar keltirib o'tilgan.*

Kalit sozlar: *Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, harbiy maqsadlarda suniy intellekt tizimlari, qo'shinlarni boshqarish, maxsus dasturiy ta'minoti.*

Аннотация: *Данная статья посвящена направлениям применения системы искусственного интеллекта в системах управления войсками и оружием, военной и специальной техники, проблемному анализу использования искусственного интеллекта военного назначения, рассмотрению основных требований по применению искусственного интеллекта, разработке ряда основных технологий в создании системы искусственного интеллекта, а также подготовке предложений применению систем искусственного интеллекта в военных целях.*

Ключевая слова: *Автоматизированная система управления, системы искусственного интеллекта военного назначения, управление войсками, специальное программное обеспечение.*

Annotation: *This article presents the directions of using artificial intelligence systems in the automation of military control systems, weapons, military and special equipment, an analysis of current problems in using artificial intelligence systems for military purposes, the requirements for it, proposals for the development of a number of basic technologies for creating artificial intelligence systems and the positive results of using them for military purposes.*

Keywords: *Automated control systems, artificial intelligence systems for military purposes, troop control, special software.*

Bugungi kunda qo'shinlarni boshqarish tizimlariga, qism va bo'linmalarning jangovar shayligini mustahkamlash, shuningdek qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika namunalariga turli xil innovatsion mahsulotlarni, ayniqsa kuchli dasturiy ta'minot va hisoblash tizimlarini keng joriy etish sezilarli darajada oshirildi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari qurolli kuchlarini rivojlantirish istiqbollari hozirgi

kunda deyarli barcha harbiy mutaxassisleri tomonidan qurollarni axborotlashtirish, robotlashtirish asosan qo'shinlar boshqaruvini avtomatlashtirish bilan bog'liq. Biroq, bunday tizimlarning joriy etilishi juda ko'p miqdordagi turli xil ma'nosiz ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashni, sezilarli noaniqlik sharoitida tezkor qarorlar qabul qilishni talab qildi. Bunday muammolarni hal qilishda odamning o'rnini bosadigan vositalarni topish muammosi paydo bo'ldi. Bunga sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish katta turtki berdi [1].

Sun'iy intellektga ega tizimlar ko'pincha oddiy algoritmlarga asoslangan dasturiy ta'minotni boshqarishning kichik darajalariga ega bo'lgan har qanday obyektlarni o'z ichiga oladi. Ular avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan aniqlanadi

Qo'shinlarni boshqarish jarayonlari va qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnikalar avtomatizatsiyasini ushbu maqsadlar uchun sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni farqlash lozim. Birinchi holda, biz ma'lumot to'plash, tasniflash, tuzish algoritmlari to'plami bilan jihozlangan kompyuterlar haqida gapiramiz, keyinchalik ular rasmiylashtirilgan usullardan foydalangan holda jangovar vazifalarni hal qilish uchun dastlabki ma'lumotlar tizimi sifatida ishlatiladi. Avtomatlashtirishga nisbatan intellektli o'rtasidagi asosiy farqlar-bu kompyuterning turli xil va to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga, tez-tez o'zgarib turadigan vaziyatlarga asoslanib, sezilarli noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bunday sharoitda sun'iy intellekt tizimlarining o'z-o'zini o'rganish va moslashuvchanlik kabi xususiyatlari, ya'ni sun'iy intellekt tizimining o'ziga xos dasturiy ta'minotni mustaqil ravishda takomillashtirish qobiliyati, shu jumladan algoritmik ravishda ta'minlanmagan vaziyatlarda o'z-o'zini dasturlash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Aytish mumkin, sun'iy intellekt tizimi - bu kompyuterning odamga o'xshash turli xil va tez o'zgaruvchan vaziyatlarda intuitiv qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Avtomatlashtirilgan tizimlar bunday imkoniyatga ega emasligi va ma'lumotlarning to'liq emasligi avtomatik boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi.

Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari aksariyat hollarda, qat'iy yo'naltirilgan va ular hal qiladigan vazifalar soni cheklangan. Kompyuterning operatsion tizimiga turli xil muammolarni hal qilish uchun algoritmlar soni qancha ko'p bo'lsa, u sun'iy intellekt tizimiga shunchalik o'xshaydi. Sun'iy intellekt tizimi obyektiv yo'naltirilgan bo'lishi mumkin (chunki odam kabi keng ko'lamli muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan sun'iy intellekt tizimini yaratishning ma'nosi yo'q - bu uni yaratish uchun mehnat xarajatlari uchun ham, uni qo'llash samaradorligi uchun ham mantiqsiz bo'ladi), ammo moslashuvchanlik, o'z-o'zini o'rganish va intuitivlik kabi fazilatlar tizimlarning asosiy farqlari bo'lib qoladi. Shuning uchun, agar avtomatlashtirilgan tizim u yoki bu holatda qanday choralar ko'rishi haqida to'liq tushuncha bo'lsa, unda sun'iy intellekt bilan bunday tushuncha bo'lmaydi. O'z-o'zini o'rganish orqali kompyuter o'z ishini mustaqil ravishda yaxshilaydi va dasturlaydi [2].

Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan qurol-yarogʻ, harbiy va maxsus texnika namunalaridan foydalanish algoritmik jihatdan qoʻshinlarni boshqarishdan koʻra koʻproq taʼminlangan. Bu qurol va texnikalarni jangovar qoʻllash variantlarining tor doirasi bilan bogʻliq. Koʻpgina hollarda, jangovar vaziyat toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning toʻliq emasligi jangovar harakatlar jarayonida zarur boʻlgan qarorlarni avtomatik holda ishlab chiqish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytiradi.

Harbiy harakatlar paytida bir biriga oʻxshash holatlar takrorlanmaydi, shuning uchun qoʻshinlarni boshqarishning barcha holatlariga kerakli algoritmlarni yaratish deyarli mumkin emas. Bu tushunarli holat, dastlabki maʼlumotlar, yaʼni ob-havo, dushman, uning jihozlari va harakat taktikasi, dushman va bizning qoʻshinlarimiz qurol-yarogʻlarining mavjudligi, shaxsiy tarkibning soni va ularning tayyorgarligi har xil holatda turlichadir. Natijada, ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish qoʻmondonlik tomonidan qaror qabul qilish uchun dastlabki maʼlumotlarni tayyorlash usuli hisoblanadi. Biroq, avtomatik boshqaruv tizimi va sunʼiy intellekt tizimlarini qoʻllash qoʻshinlar va qurollarni boshqarishni cheklanmaydi. Ikkala tizim ham bugungi kunda qoʻllanilmoqda va kelajakda keng koʻlamli muammolarni hal qilish uchun kengroq qoʻllaniladi.

Sunʼiy intellekt tizimlariga kelsak, uni harbiy ishlarda qoʻllashning asosiy yoʻnalishlari quyidagilar boʻlishi mumkin:

harbiy qurilishni boshqarishda;

jangovar shaylikni mustahkamlash, qurollar tizimini rivojlantirishda;

urushlar va qurolli toʻqnashuvlarda harbiy qurol va maxsus texnika namunalarini, majmualarini va tizimlarini, qoʻshinlarni va harbiy tuzilmalarini boshqarishda;

moddiy-texnik taʼminotni boshqarishda va boshqalarda.

Harbiy qurilish jarayonida sunʼiy intellektdan geosiyosiy vaziyatning rivojlanishini tahlil qilish va prognoz qilish, tahdidlar, dushman hujumi ehtimoli va usullarini baholash, kuchlarning mumkin boʻlgan tarkibi va ishlatilgan qurollarning xususiyatlari, infratuzilma, kuchlar va vositalarga yetkazishi mumkin boʻlgan zarari, shu asosda Qurolli kuchlar va qurollar tizimini rivojlantirish yoʻnalishlarini aniqlash uchun oʻz-oʻzini oʻrganish tizimlarida foydalanish mumkin. Qoʻshinlarning jangovar shayligini mustahkamlash va qurol – yaroq tizimini rivojlantirish uchun quyidagilar eng koʻp ahamiyatga ega boʻladi:

vaziyatni baholash, real vaqt rejimida jangovar harakatlarni rejalashtirish va boshqarish, har xil turdagi kuchlar va vositalarning oʻzaro hamkorligini taʼminlash uchun intellektual axborot tizimlari;

zamonaviy va istiqbolli harbiy qurol va maxsus texnika namunalari, qurol – yarogʻ tizimlari, kuch va vositalar, guruhlarining jangovar samaradorligini baholash uchun katta agentli modellashtirish;

turli xil bilim sohalarining holati va rivojlanish istiqbollari, ilmiy, texnik va texnologik yutuqlarning xususiyatlarning o'zgarishiga ta'sirini baholash bo'yicha tuzilmagan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari;

harbiy qurol va maxsus texnika materiallari, tarkibiy elementlari, tarkibiy qismlari va namunalari, shu jumladan elektron komponentlar bazasi, harbiy qurol va maxsus texnikalarini sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni ta'minlash uchun sanoat texnologiyalari [3].

Belgilangan tendentsiyalarni tahlil qilish asosida yaqin kelajakda harbiy sohada sun'iy intellektni joriy etishning asosiy obyektlari quyidagilar bo'ladi:

axborot-razvedka ma'lumotlarini qayta ishlash va integratsiya qilish tizimlari, shu jumladan akustik (ovozli va tovush chiqaradigan), optik, elektron, shu asosda tahdidlarni tasniflash va maqsadlarni aniqlash;

harbiy qurol va maxsus texnikalarning ekipaj va aralash guruhlarining guruh harakatlarini boshqarish tizimlari, shu jumladan razvedka, razved-zarbali harakatlarni ta'minlaydigan robotlar. Robotlarning guruhli boshqarish texnologiyalari chet elda havo va dengizda (yer usti va suv osti harakatlari uchun) istiqbolli qurolli kurash tizimlarini yaratish yo'nalishi bo'yicha jadal rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt tizimi tomonidan boshqariladigan mini va sun'iy yo'ldoshlar asosida turli maqsadlar uchun kosmik tizimlarni yaratish masalalari ishlab chiqilmoqda, bu ularning to'g'ridan-to'g'ri vazifalarini bajarish samaradorligini oshirishni va dushman qarshilik ko'rsatganda barqarorlikni ta'minlaydi;

dushman haqidagi razvedka ma'lumotlari (shu jumladan uning qo'shinlari, qurol-yarog' va uning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar) va o'z qo'shinlari va harbiy qurol va maxsus texnikalar namunalariining imkoniyatlarini baholash asosida optimal maqsadli taqsimlash tizimlari [4].

Kelajakda sun'iy intellektidan yangi qurol turlarini, yangi materiallarni, yangi dizaynlarni loyihalashda va hatto yangi urush strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Jangovar harakatlarga kelsak, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan tizimlardan foydalanish yaradorlarni samarali qayta jonlantirish, jarohatlarning oldindan aytib bo'lmaydigan tabiati bilan salbiy oqibatlarini tez aniqlashni ta'minlaydi. Sun'iy intellektning yuqori salohiyatidan xabardor bo'lgan dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlari yangi texnologik musobaqaga qo'shilishdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarning murakkabligini hal qilishga namuna qilib ko'rsatish uchun biz ulardan birini, ya'ni bo'linmaning (guruh, vzvod, batalyon) jangovar boshqaruv tizimiga sun'iy intellekt tizimni joriy etishni ko'rib chiqish mumkin. Komandir bilan ma'lumot almashish uchun har bir jangchi va har bir jangovar transport vositasi aloqa vositalariga ega bo'lishiga qaramay, komandir va bo'linmalar orasida hamkorlik qilish juda sekin va samarasiz bo'ladi. Jangda jangchi yoki jangovar transport vositasidan komandirga va ortga ma'lumot radiostansiya

orqali ovoz bilan yoki matnli fayl yoki fotosurat shaklida uzatiladi. Video tasvirni translyatsiya qilish imkoniyati ham mavjud. Shuning uchun, har bir jangchidan yoki jangovar mashinadan qo'mondonlik punktiga komandirga ma'lumot kelganda u vaziyatni doimiy ravishda baholashi kerak (har bir jangchidan olingan ma'lumotlarni birlashtirib), dushmanning yangi aniqlangan kuchlari va vositalarini, uning mavjudligi va holatini hisobga olishi va baholashi kerak.

Uzoq davom etadigan urushda, askarlar okoplarda bo'lganlarida, past intensiv mudofaa jangini olib borganlarida, bo'linma komandiri bunday vazifani bajara olishi mumkin. Ammo harbiy mutaxassislarning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda uzoq davom etadigan urush bundan mustasno. Qoidaga ko'ra bu urushda juda tezkor, manyovrli va shiddatli jangovar harakatlar olib boriladi. Bunday sharoitda vaziyat juda tez o'zgaradi va bir necha daqiqa ichida qaror qabul qilinadi, bir necha martalab nishonga tekkizish kuch va vositalari bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi, qurol va harbiy texnikalarning texnik holati, soni o'zgarishi bilan bu urush samarasiz bo'lib boraveradi. Uzluksiz katta hajmdagi axborotlar oqimida inson, ya'ni komandir vaziyatga mos va tezkor qaror qabul qilishga qiynaladi [5].

Binobarin, jangchi kiyim-bosh va anjomlari alohida elementlarining va jangovar mashinalar kommunikatsiya vositalarining oddiy takomillashganligi bo'linma harakatlarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin emas. Shunday ekan har bir jangchidan va bo'linmaning har bir texnik vositasidan (piyoda jangovar transport vositasi, zirhli transport vositasi, artilleriya tizimi va boshqalar) avtomatik ravishda razvedka ma'lumotlarini qabul qila oladigan, uni yaxlit holga keltiradigan, dushman obyektlarini tenglashtiradigan va ularning xavfini aniqlaydigan, ularning nisbiy va texnik holatini, jangovar vositalarning mavjudligi va turini hisobga olgan holda ularning texnik vositalari va jangchilarini nishonga olish imkonini beradigan boshqaruv tizimi kerak. Bunday holda, komandir faqat muhim holatlarda jangni boshqarish jarayoniga aralashishi kerak bo'lgan kuzatuvchiga aylanadi. Bo'linmalarining boshqaruv tizimiga taktik va texnik talablarni ishlab chiqish haqida gapirganda, belgilangan yondashuv bilan uning elementlariga biroz boshqacha talablar qo'yish lozim:

Razvedka vositalariga - har bir jangchi va harbiy qurol va maxsus texnika obyektida (tank, BMP, BTR, ATGM hisoblash, minomyotni hisoblash va boshqalar) real vaqt rejimida atrof-muhit to'g'risida avtomatik ma'lumot to'plashni ta'minlaydigan razvedka vositalarining mavjudligi;

Aloqa vositalariga - komandirda joylashgan ma'lumotlarni qayta ishlash punktiga har bir jangchidan yoki harbiy qurol va maxsus texnika obyektidan real vaqt rejimida katta ma'lumot oqimlarini avtomatik ravishda uzatishni ta'minlash, qo'mondonlik punktidan vazifalarni yetkazishni ovozli aloqa bilan emas, balki namoyish qilish va nishonga olish vositalari orqali etkazish;

Navigatsiya Vositalariga - harbiy qurol va maxsus texnika obyektni, atrof-muhit elementlarini, aniqlangan nishonlarni doimiy ravishda avtomatik ravishda joylashtirish;

Nishonni Urish Vositalariga – qurol va o'q dorilarning nishonlarni urish qobiliyatini, ularning texnik holatini nazorat qila oladigan va bu axborotlarni qo'mondonlik punktidagi aloqa tizimi orqali uzatadigan axborot qurilmalarining mavjudligi;

Qo'mondonlik punktini boshqarishni avtomatlashtirish vositalariga – turli xil razvedka ma'lumotlarini (optik, radar, akustik, termal va boshqalar) integratsiyasini ta'minlash va shu asosda maqsadlarni aniqlash (tan olish), ularning xavflilik darajasini aniqlash, o'z vositalarimiz imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni yo'q qilish yechimini ishlab chiqish [6].

Ushbu yondashuv bilan bo'linmaning alohida tarkibiy elementlariga talablarni belgilashda nafaqat ularning xususiyatlarining qiymatlarini yaxshilash zarurligini hisobga olish, balki ushbu elementlarning bo'linmaning razvedka va axborot tizimiga zararli axborot kiritilishini (integratsiyasini) ta'minlash kerak bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruvni avtomatlashtirish tizimi sun'iy intellekt elementlari asosida qurilishi kerak, chunki oddiy qarorlarni avtomatlashtirish mumkin bo'lmaydi. Jangda bo'linmani boshqarishning bunday tizimini yaratish uchun bir qator asosiy texnologiyalarni (internet tarmoqlari, katta ma'lumotlar, qarorlarni qo'llab – quvvatlash va boshqalar) ishlab chiqish kerak

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va rivojlantirish hozirgi vaqtda ilmiy-texnik taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda, bu nafaqat qurolli kurashning mohiyatini, balki davlatlarning, shu jumladan iqtisodiy, axborot va kiber urushlarning kuch qarama-qarshiligining butun mohiyatini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan asosiy texnologiya hisoblanadi.

Shunday ekan sun'iy intellekt tizimlarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlariga, shu jumladan Mudofaa vazirligi qo'shinlarining har bir sohasiga qo'llash orqali vaziyat tez o'zgaradigan jangovar harakatlarda qo'shinlarni avtomatik ravishda boshqarish va komandirlar tomonidan vaziyatga mos tezkor qarorlar qabul qilish, razvedka ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilishni, dushman obyektlarini nishonga olishni xatosiz amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida. 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son., Toshkent sh.

2. Буренок В.М. Искусственный интеллект в военном деле. Журнал //«Арсенал Отечества» № 3 (53) за 2021 г., г. Москва.

3. Виловатых А. В. Искусственный интеллект как фактор военной политики будущего. Журнал //Проблемы национальной стратегии № 1 (52) 2019. г. Москва.

4. Герасимов В.В. Развитие военной стратегии в современных условиях. Задачи военной науки // Вестник академии военных наук. 2019. № 2 (67). г. Москва.

5. Галкин Д.В. Состояние и перспективы использования искусственного интеллекта в военном деле. Журнал// Военная мысль, 2021, г. Москва.

6. Национальная стратегия развития искусственного интеллекта до 2030 года. URL: www.kremlin.ru/acts/bank/44731 (murojaat qilingan sana: 26.02.2025).

BUXORO VILOYATI AHOLISIGA ATROF MUHIT EKOLOGIYASINING SALBIY TA'SIRI XUSUSIYATLARI

Maxmudjonova Maftuna Rustamovna

Buxoro Davlat tibbiyot instituti Davolash fakulteti 2- bosqich talabasi

Kalit soʻzlar: *Ekologiya, astma, bronxit, surunkali yoʻtal, ekotizim, tuproq degradatsiyasi, shoʻrlanish, aholi migratsiyasi.*

Buxoro –Oʻzbekistonning qadimiy shaharlaridan biri boʻlib, boy madaniy merosi va rivojlangan iqtisodiy sohalari bilan mashhur. Biroq, soʻnggi yillarda ekologik muammolar bu hududning aholisi uchun jiddiy muammolarga aylanmoqda. Havo, suv va tuproq ifloslanishi, iqlim oʻzgarishlari va choʻllanish jarayonining tezlashishi natijasida sogʻlik muammolari, iqtisodiy qiyinchiliklar va yashash sharoitlarining yomonlashuvi kuzatilmoqda.

Ekologiya fanining hozirgi tarmoqlari 40 dan ortiq, kelajakda bu raqam yanada koʻpayishi aniq. Hozircha ekologiyani 3 ta yirik tarmoqqa boʻlib oʻrganish mumkin. Bular:

Umumiy ekologiya – tirik organizmlarning yashash muhitini va ularning oʻzaro bogʻliqlik qonunlarini oʻrganadi.

Nazariy ekologiya – xayotiy jarayonlar tashkillashuvidagi umumiy qonuniyatlarni oʻrganadi va ochib beradi.

Amaliy ekologiya –insoniyat tomonidan biosferaga keltirilayotgan zarar mexanizmini oʻrganib, ushbu jarayonlarning oldini olish usullarini ishlab chiqadi.

Buxorodagi asosiy ekologik muammolar:

1. Havo ifloslanishi

Buxoroda sanoat korxonalari va avtomobillar sonining ortishi natijasida havodagi zararli moddalar miqdori ortmoqda va gazlarning koʻpligi insonlarda quyidagicha muammolarga sabab boʻlmoqda:

A)Nafas yoʻllari kasalliklari (astma, bronxit, surunkali yoʻtal)

B) Yurak –qon tomir tizimi kasalliklari

S) Aholi immunitetining pasayishi

Shahar aholisining koʻpchiligi har kuni transport vositalari chiqaradigan gazlar va sanoat chiqindilari bilan nafas oladi. Bu ayniqsa, bolalar va keksalar uchun jiddiy xavf tugʻdiradi.

2. Suv resurslarining ifloslanishi

Buxoroning asosiy suv manbalari – Zarafshon daryosi va yer osti suvlari. Lekin sanoat chiqindilari va qishloq xoʻjaligida kimyoviy oʻgʻitlar va pestitsidlarning koʻp ishlatilishi sababli ichimlik suvi sifati yomonlashib bormoqda. Natijada:

- ichak infeksiyalari va oshqozon –ichak kasalliklari ortmoqda.

- suvdan foydalanish qiyinlashib, qishloq joylarida suv tanqisligi yuzaga kelmoqda.

- ekotizimlar zarar ko'rib, baliqchilik va qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Tuprog' degradatsiyasi va sho'rlanishi

Buxoro viloyati tuprog'ining asosiy qismi noto'g'ri sug'orish va sho'rluvlarning qayta ishlatilishi natijasida yer sifati yomonlashmoqda va sho'rlanish jarayoni kuchayib bormoqda. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi, tuprog' unumdorligi pasayib, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatsizlanishiga olib kelmoqda.

4. Iqlimning keskin o'zgarishi va cho'llanish

Buxoro hududidining geografik joylashuvi quruq iqlim sharoitiga ega. So'nggi yillarda global isish va yog'ingarchilikning kamayishi natijasida o'rtacha havo harorati oshib, qurg'oqchilik kuchaymoqda. Buning asoratlari esa dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning kamayishiga va axolining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagi muammolar Buxoro aholisining hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan:

1. Ifloslangan havo va suv tufayli nafas olish yo'llari va ichak kasalliklari ortib bormoqda
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining kamayishi natijasida oziq-ovqat narxлари oshmoqda
3. Tabiiy resurslar yetishmovchiligi sababli ayrim hududlarda aholi migratsiyasi kuchaymoqda

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, havoni tozalash uchun ekologik transport vositalarini joriy etish va sanoat chiqindilarini kamaytirish, sanoat va qishloq xo'jaligida ekologik standartlarga rioya qilish, yerlarni sho'rlanishdan himoya qilish va zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish hamda aholining ekologik xabardorligini oshirish va tabiatni muhofaza qilishga jalb etish.

Agar bu chora- tadbirlar amalga oshirilsa, Buxoro aholisi uchun ekologik barqarorlik va sog'lom muhit ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TO'PLAMI:

1. D.Yo.Yormatova, X.S. Xushvaqtova « ekologiya va tabiatni muhofaza qilish» Toshkent —« Fan va texnologiya « -2018
2. A. A. Nazarov « ekologiya va tabiatni muhofaza qilish « Toshkent -2020
3. Tiiame pdf yerdan foydalanish ekologiyasi - UPC
4. Buxdupi pdf «ekologiya va tabiatni muhofaza qilish»

5. Abdullayev, O. Toshmatov Z. O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga T. Fan 1992-y
6. Tuxtayev A.S ekologiya T, O'qituvchi 1997. 112b
7. www.arxiv.uz Reja
8. <https://bestpublication.org>
9. <https://arxiv.uz>
10. <https://teletype.in>
11. Sultonova S. F. B GURUH VITAMINLARNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 14-151.
12. Sultonova S.F. BIOKIMYO FANINI O 'QITISHDA ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASINING AHAMIYATI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 170-186.
13. Sultonova S. F. QON OQSILLARI VA ULARNING FUNKSIYASI //Scientific Impulse. – 2024. – T. 2. – №. 17. – C. 1334-1348.
14. Faxriddinova S.S.et al. QONNING ORGANIZMDAGI FUNKSIYALARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 3. – №. 28. – C. 60-63.
15. Sultonova S. F. VITAMINLAR VA UNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI //SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 117-133.
16. Sitara S. CHANGE IN THE PROPERTIES OF YARN SIZED BY A NEW POLYMER COMPOSITION BASED ON MODIFIED STARCH //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 315-328.
17. Sultonova S. F. VITAMINLAR VA UNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 117-133.
18. Султонова С. Ф. СКОРОСТЬ ХИМИЧЕСКОЙ РЕАКЦИИ. ХИМИЧЕСКОЕ РАВНОВЕСИЕ //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 152-169.
19. Sultanova S. F. VITAMINS AND ITS BIOCHEMICAL IMPORTANCE //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 378-389.
20. Султанова С.Ф. ВИТАМИНЫ И ЕГО БИОХИМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 358-373.
21. Султонова С. Ф., Норов И. И., Жумаева Д. К. Свойства полимерных композиций на основе калиевой соли полифосфорной кислоты и крахмала для шлихтования нитей// Омега сайнс //Омега сайнс. Тез. Докл. сборник статей Международной научно-практической конференции. – 2021. – С. 11-13.

22. Султонова С. Ф. СИНТЕЗ СМЕШАННЫХ ГЕТЕРОЛИГАНДНЫХ СОЕДИНЕНИЙ АЦЕТАМИДА И АЦЕТИЛАЦЕТОНА С ХРОМОМ // *Universum: химия и биология*. – 2022. – №. 12-3 (102). – С. 5-8.

23. Sitara S., Sherzod O., Ilgor N. FEATURES OF APPLICATION IN THE TEXTILE INDUSTRY OF SYNTHETIC POLYMER COMPOSITIONS SOLUBLE IN NATURAL WATER // *Universum: технические науки*. – 2023. – №. 6-4 (111). – С. 66-69.

24. Sitara S., Sherzod O., Ilgor N. FEATURES OF APPLICATION IN THE TEXTILE INDUSTRY OF SYNTHETIC POLYMER COMPOSITIONS SOLUBLE IN NATURAL WATER // *Universum: технические науки*. – 2023. – №. 6-4 (111). – С. 66-69.

25. Sitara S. CHANGE IN THE PROPERTIES OF YARN SIZED BY A NEW POLYMER COMPOSITION BASED ON MODIFIED STARCH // *Новости образования: исследование в XXI веке*. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 315-328.

26. Илгор Илхомович Норов, Ситора Фахриддиновна Султонова. ИССЛЕДОВАНИЕ МЕХАНИЧЕСКИХ И ФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ШЛИХТОВАННОЙ ПРЯЖИ, С ПРИМЕНЕНИЕМ МОДИФИЦИРОВАННОГО КРАХМАЛА // *Universum: технические науки* - 2024 – Т. 6. - №. 4 (121). – С. 8-11.

27. Тулисова Ситора Октамовна. СУЛФАТЛАНГАН ЦЕЛЛЮЛОЗА БИРИКМАЛАРИНИНГ ХУЖАЙРАДА // *WORLD OF SCIENCE* КЕЧАДИГАН ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИРИ. 2024/5/25 – Т. 7.- № 5. С. 620-624.

28. Ситора Октамовна Тулисова. ГЕМОСТАЗ СИСТЕМАСИ-ОРГАНИЗМ ҲИМОЯСИ // *WORLD OF SCIENCE*- 2024/5/25 Т. 7.- № 5. С. 146-155.

29. Ситора Октамовна Тулисова. ҚОН ИВИШИГА ҚАРШИ МЕХАНИЗМЛАР // *WORLD OF SCIENCE* 2024/5/25 Т. 7.- № 5. С. 156-165.

30. Ситора Октямшеровна Тулисова. ЭНДОТЕЛИАЛ ОҚСИЛЛАР-ГЕМОСТАЗ РЕГУЛЯТОРЛАРИ СИФАТИДА // *Scientific Impulse* - 2024/2/1 - – Т. 2.- № 17. С. 1349-1363.

31. Ситора Октамовна Тулисова. СЦ-GSC-83 БИРИКМАСИНИНГ ТРОМБОЦИТЛАРИНИНГ ТУРЛИ АГРЕГАЦИЯСИГА ТАЪСИРИ // *Новости образования: исследование в XXI веке*- 2023/11/10- – Т. 2.- № 15. С. 446-460.

32. Norov I. I. et al. Sizing polymer compositions on the base of starch and polyvinyl alcohol // *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*. – 2019. – №. 11-12. – С. 41-44.

33. Норов И. И.; Илхомов А. А.; Ахмедова Ш. М.; Ниёзов Э. Д. Калава ипларни оҳорлаш учун крахмални полифосфат кислотанинг калийли тузи билан модификациялаб олинган полимер композицияларни реологик хоссаларини тадқиқ қилиш // *Science and Education*. – 2021. – №. 1 – С. 187-195.

34. Э.Д. Ниёзов, И.И. Норов, С.Ф. Султонова. Физико-механические свойства щлихтованной пряжи на основе модифицированного крахмала // Sciences of Europe. – 2021. – №.71 – С. 6-8.

35. Ниёзов Эркин Дилмуродович; Ортиков Шерзод Шарофович; Норов Илгор Илхомович. Особенности применения в текстильной промышленности синтетических полимерных композиций растворимых в природной воде // Universum: Технические науки. – 2022. – №.4 – С. 47-50.

36. Nazarov S.I.; Sultonova S.F.; Norov I.I. PROPERTY OF YARN TREATED WITH MODIFIED STARCH // Theoretical & Applied Science. – 2022. – №.6 – P. 89-92.

37. I.I. Norov; E.D. Niyozov; M.S. Sharipov; Sh.Sh. Ortiqov. Kraxmal va PFK ning natriyli tuzi asosida kalava iplarni ohorlash uchun polimer kompozitsiyalarni ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari // Ilmiy axborotnoma – 2022. – №.3 – P. 65-70

**MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK – O'ZBEK ADABIYOTIDA
UNITILMAS SIYMO.**

Solijonov S.Z

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Talaba

Nazarova D.T

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsent.

Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida XX asr adabiyoti alohida o'rinni egallaydi. Mamlakat va mintaqalarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning yo'li zamonaviy bosqichda aynan ta'lim sifatini oshirishda XX asrda katta ijodiy davonlarni zabt etgan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905 yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga kelgan. Oldin o'rta maktabda, 1922-1925 yillarda esa Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan. So'ngra O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qigan. 1930 yili o'qishni bitirib, oliy maktablarda siyosiy iqtisoddan dars bergan. Oybek adabiyotga 1926 yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib kelgan. O'zining roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiypublitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she'rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan Oybek bolalar adabiyotiga ham munosib hissa qo'shgan ulkan adibdir. U yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga samarali ta'sir etib, yosh avlod estetik didining shakllanishida katta rol o'ynamoqda. Oybekning bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan she'riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o'sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzusiga aylanadi. Shoirning "Dilbar - davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indik" (1933), "Temirchi Jo'ra" (1933) dostonlari o'z davrining eng go'zal she'riy solnomalaridir. Oybek tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybek mohir shoir bo'lgani kabi yetuk romannavis hamdir. U yaratgan "Qutlug'qon", "Navoiy", "Ulug'yo'l", "Oltin vodiya shabadalar", "Quyosh qoraymas" kabi romanlari o'zbek realistlik romanchiligi taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi. Oybekning nasriy asarlari orasida o'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushidagi jasorati tasviriga bag'ishlangan "Quyosh qoraymas" (1943-1959) romani alohida e'tiborga loyiq. Adib mazkur romanini garchand G'arbiy frontga qilgan safaridan qaytib boq yoza boshlagan bo'lsada, urush to'g'risidagi dahshatli haqiqatni aytish iloji bo'lmagani uchun, uni 50-yillarda — xastalik paytida yozib tugatdi. Oybek Bektemir va uning ikki jangovar do'stining obrazini yaratish orqali Sovet davlatining urushga tayyorgarliksiz kirgani va sarkardalarning qo'pol xatolari tufayli millionlab kishilar, shu jumladan, o'zbek jangchilarining "to'p yemi" bo'layotgani haqidagi haqiqatni badiiy mujassamlantirib berdi. Islohotlar samarasi xususan shaxsning kasbiy mahorati bilan chambarchas

bog'liq. Oybek iste'dodli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi va tarjimon, davlat va jamoat arbobi hamdir. Oybek 1943 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylangan va 1950 yilgacha akademiyada ijtimoiy fanlar bo'limining raisi lavozimida faoliyat yuritgan. U yuqori malakali filologlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan muhtaram ustozdir. Oybek o'zining asarlarida o'qituvchi-murabbiy o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosini o'zgartirish, unga she'riy to'plamlari, asarlari asosida ta'sir ko'rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarishni yoritgan. Bu esa ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda katta ahamiyat beradi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki bir qatorda, "...milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim"⁴ Ta'lim jarayonini individuallashtirish, integratsiyalash va uning samaradorligini ta'minlash orqali fuqarolik jamiyatining intellektual salohiyatini oshirish, bilim egallashning mustaqil, faol ijodiy metod va usullarini ta'minlash va uning ilmiy-amaliy texnologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Oybek o'z asarlarida ham ko'pdan ko'p sohalarni qamrab olgan mavzularda yozilgan. Ayniqsa to'qimachilik sohasi bo'yicha o'zi bo'zchi oilasida tavallud topganigami bu sohani ko'proq asarlarida yoritgan. Jumladan, "Kaftiga quyosh qo'ndirilganday charaqlagan, keng chorchari mehmonxonada yangi yavmud gilam ustida tig'iz davra qurgan qo'noqlar, yaqin do'stlar samimiy suxanvarlik ila suhbat qilurlar" bundagi yoritilgan gilam bizning to'qimachilik sohasidagi yangi ochilgan yo'nilishni davomiy bo'lishiga sabablardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni⁵, 2020 yil 8 oktabrdagi 5847-son O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoyishi⁶, O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2020 yil 23 sentabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida»gi qonuni⁷ hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda Oybek she'riyati nihoyatda go'zal bo'lib, o'zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Oybekning el-yurt oldidagi xizmatlari munosib baholanib, unga O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, "Buyuk xizmatlari uchun" unvonlari berilgan.

Oybek qalamiga mansub roman va qissalar qaysi davr hayotidan olingan bo'lmasin, adib shu davr hayotini mukammal o'rgangan, ayniqsa, tarixiy davr va

⁴ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017, 48-б.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида. ПФ-60-сон. 28.01.2022// <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармойиши. 8 октябрь 2020 йил. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>

⁷ Ўзбекистон Республикасининг 637-сонли "Таълим тўғрисида»ги 2020 йил 23 сентябрдаги Қонуни. <https://lex.uz/docs/5013007>.

tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Oybekning nasriy asarlariga xos muhim xususiyatlardan yana biri shundaki, u asar qahramoni yoki tarixiy shaxsni Vatan va xalq manfaatlarini yo'lida kurashuvchi, mehnatkash xalq orzu-armonlarining ro'yobga chiqishi yo'lida zahmat chekuvchi siymo sifatida tasvirlaydi.

Yozuvchi asarlari o'zbek adabiyotining jahonaro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mustahkam o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek – O'zbek adabiyotida unitilmas siymo ekanligini qayta qayta takidlab o'tsak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>
2. Pulatov X. O'zbekiston xalq sanati (Narodnoye isskustvo Uzbekistana). Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1987 y. 123 b.
3. Quyosh qoraymas [Matn]: Roman / Izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: H. Qurbonova, SH. Eshonxo'jayev; Mas'ul muharrir: Z. Saidnosirova, N. Karimov. – 1976. – 375 b.
4. Qutlug' qon [Matn]: Roman / Mas'ul muharrirlar: H. Yoqubov, Z. Saidnosirova. – 1976. – 415 b.
5. Navoiy [Matn] : Roman / Izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: SH. Eshonxo'jayev, S. Irisxojiyeva; Mas'ul muharrirlar: H. Yoqubov, Z. Saidnosirova. – 1976. – 724 b.
6. Oltin vodiyan shabadalar [Matn] : Roman / Izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: N. Karimov, O. Boqiyev; Mas'ul muharrirlar: Z. Saidnosirova, G'. Mo'minov. – 1976. – 544 b.

МАИШИЙ ТУРМУШДА СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАРИ.

Аяпова Зухра Конысбаевна

*Ўзбекистон Республикаси Судьялар Олий Кенгаши хузуридаги Судьялар
Олий мактаби жиноят ҳукуки ихтисослиги тингловчиси.*

Аннотатция: Мақолада маиший турмушда содир этиладиган жиноятларнинг тушунчаси, уларнинг асосий турлари ва ижтимоий хавфи таҳлил қилинади. Маиший жиноятлар, одатда, оилавий муносабатлар ёки яқин шахслар ўртасидаги муаммолар натижасида содир этиладиган ҳуқуқбузарликлар бўлиб, улар жамиятда кенг тарқалган. Бундай жиноятларга оилавий зўравонлик, шахсга қарши жиноятлар (ўлдириш, тан жароҳати етказиш, таҳқирлаш), мулкӣ жиноятлар (ўғирлик, талон-торож қилиш), ҳамда алкоголь ва гиёҳванд моддалар таъсирида содир этиладиган ҳуқуқбузарликлар киради. Мақолада шу каби жиноятларнинг сабаблари, ҳуқуқий оқибатлари ва уларнинг олдини олиш чоралари ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: Маиший жиноятлар, криминоген-низол вазиятлар, гуруҳий жиноятлар, урф-одатлар, оилавий муносабатлар.

КИРИШ

Маиший турмушда содир этиладиган жиноятлар – оилавий ва шахсий муносабатлар доирасида юзага келадиган ҳуқуқбузарликлар бўлиб, улар жамият барқарорлиги ва шахс хавфсизлигига жиддий таҳдид солади. Маиший жиноятлар кўпинча оилавий низолар, ижтимоий-иқтисодий қийинчиликлар, жиноий маданиятнинг таъсири ва қонунчилиқни етарлича билишмаслик сабабли юзага келади. Бундай ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш учун ҳуқуқий тарғибот, ижтимоий ёрдам ҳамда давлат томонидан қонуний чоратadbirlar амалга оширилиши зарур.

Ушбу мақолада маиший жиноятларнинг турлари, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, ҳуқуқий оқибатлари ва олдини олиш чоралари таҳлил қилинади. Шунингдек, Ўзбекистон қонунчилигида бу борада белгиланган жазо чоралари ва мавжуд муаммолар муҳокама қилинади.

Маиший турмуш соҳасида содир этиладиган жиноятларнинг криминологик тавсифи ўзига хос равишда мураккабдир. Унинг мураккаблигининг белгиси жиноятларнинг вақт ва масофа орасида (яъни, уларнинг турли-туманлиги, ривожланишининг ўзига хос тенденцияси мавжудлиги, кенг тарқалганлиги, шахсга қарши қаратилганлиги, содир этиш усули, жойи ва содир этиш вақти кабилар) содир этилишидир.

Ушбу кўриб чиқиладиган жиноятлар криминологик белгиларига кўра, айнан бир турдаги жиноятлар тоифасига киради (содир этиш жойига кўра, маиший хусусиятга эга қасднинг мавжудлиги кабилар). Шу билан бирга, турларга бўлиниши таркибига кўра ҳам маиший жиноятлар бир хил эмас ва ўз ичига жиноий-ҳуқуқий нуқтаи назаридан зарур белгига эга бўлган (шахсга қарши қаратилган ва жамоат тартибини бузувчи зўравонлик ва куч ишлатилмайдиган кабилар) жиноий қилмишлар содир этилади.

Маиший турмуш доирасидаги жиноят деганда никоҳ, оилавий, қариндошлик, дўстона, таниш-билишчилик, яқин ёки қўшничилик муносабатларида юзага келадиган, шахсга, унинг шаъни ва қадр қимматига, ҳуқуқ ва эркинликларига тажовуз қилувчи айбли ижтимоий хавфли қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик) дир.

Маиший турмуш соҳасида содир этиладиган жиноятчиликнинг таҳлилидан маълум бўлдики, ушбу жиноятлар кўпчилик ҳолда ичкиликбозлик билан яқиндан боғлангандир. Шу боис, мамлакатимизда бу ҳолатга алоҳида эътибор қаратилиб ичкиликбозликни юзага келтирувчи бир қатор сабаб ва шароитлар бартараф этилмоқда. Айни пайтда, бу борада миллий анъаналарнинг ичкиликбозлик билан боғлиқ бўлмаган одатларини қайта тиклаш ва маълум бир маросимларнинг фуқаролар йиғинларининг фаол иштироклари орқали тартибга солиниши амалга оширилмоқда. Аммо, шунга қарамай, ичкиликбозлик маиший жиноятчилик кўрсаткичларининг ошишига таъсир этмоқда. Биз кўриб чиқаётган жиноятчиликнинг асосий манбаларидан яна бири маиший турмуш жараёнида шахслар ўртасидаги низоли ҳолатлардир.

Маиший турмуш шароитида юзага келадиган низолар асосан узоқ вақт давомида этилиб, вақтида тор чегарада бўлган бўлса-да, аста-секин кучайиб бориши (шахслар ўртасидаги ўзаро низоларнинг вақти-вақти билан кучайиши) ёки дабдурустан кучайиши (яхши томонга ўзгармайдиган низолар) кабиларни ўз ичига олади. Вақти-вақти билан такрорланиб турадиган криминоген-низоли вазиятлар ўртача 33 %ни ташкил этиб, ярим йилдан уч йилгача, 63% ҳолатларда эса уч йилдан саккиз йилгача ва ундан кўп вақтда юзага келади.

Ушбу тасниф жиноятларни ўрганиш жараёнида катта аҳамият касб этади, чунки бу профилактика субъектларининг, кўриб чиқиладиган ҳолатларнинг ўзига хос жиҳатларини эътиборга олган ҳолда, махсус соҳавий профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишига имкон яратади⁸. Профилактика воситаларини криминоген вазиятлар мазмунига мослаб йўлга

⁸ Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм.— Т., 2021.— 608 б.

қўйиш профилактика ишларининг амалга ошиши ва мақсад сари аниқ йўналтирилишини таъминлайди.

Маиший турмушда содир этиладиган жиноятлар жиноятчи ва жабрланувчиларнинг бирга яшаш жойида: алоҳида хонадонларда (70%), умумий хонадонларда - коммуналкаларда (14%), ётоқхоналарда (6%), кўча-кўйда ва бошқа жамоат жойларида (10%) содир этилади.

Бу жиноятларнинг яна бир белгиси эса уларнинг асосан оила ва қўни-қўшнилар ўртасида содир бўлишидир. Тўғри, бу борада, яъни уй-жой масаласининг мамлакатимизда ўринли ҳал этилганлиги айнан оила ва қўни-қўшнилар ўртасида бўладиган низоларнинг сезиларли даражада камайишига олиб келди. Ҳар бир оилага алоҳида хонадон тарзида қурилган уйлар, кўп болали оилаларни эътиборга олган ҳолда, қаватларда ва ҳовлиларда болалар учун майдончаларнинг яратилганлиги кўп жиҳатдан қўшнилар ўртасида турли низолар келиб чиқишининг олдини олади. Шунингдек, оилаларнинг алоҳида яшашига имкон яратилиши уларнинг ҳар бири устидан ижтимоий кузатув ва назорат олиб боришга йўл очади.

Маиший турмушда содир этиладиган жиноятларнинг аксариятини битта шахс содир этади, аксинча, гуруҳийлик хусусияти эса камроқдир. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, фақат 3% жиноятлар гуруҳий тарзда содир этилади. Бунинг асосий сабаби эса жабрланувчи ва жиноятчининг яқин алоқадалигидандир. Гуруҳий жиноятлар асосан маиший безорилик ҳолларида ва тўй, маъракаларда юзага келади ҳамда айрим вазиятларда рўй беради.

Маиший турмуш соҳасида содир этиладиган жиноятларнинг криминологик тавсифини бериш даставвал жиноятчиларнинг шахсини ўрганиш билан узвий боғлиқдир. Бу каби тадқиқот маиший турмуш соҳасидаги жиноятларнинг юзага келиш сабабий боғланишларини билиш ва зарур таъсир чораларини қўллашга имкон яратади. Маиший турмуш соҳасидаги жиноятларнинг 85%ни эркаклар содир этади. Улар содир этадиган жиноятлар аёллар содир этадиган жиноятлардан хавфлилиги билан ажралиб туради.

Криминологияда маиший турмуш соҳасида аёллар содир этадиган жиноятларни умумий жиноятларни содир этишда иштирок этувчи аёллар миқдорига нисбатан ўрганишга алоҳида эътибор қаратилади⁹. Умуман олганда, жиноятларнинг содир этилишида аёллар иштироки эркакларга нисбатан кам. Шунга кўра, умумий жиноятларда аёл жиноятчилар миқдори 12-15%ни ташкил этади. Шунингдек, қотиллик жиноятларида аёллар иштироки - 3-4% ни; тан жароҳатларини ётказувчи шахслар ичида - 2-3%ни ташкил этади. Бироқ маиший жиноятлар таркибида одам ўлдириш жиноятини содир этган

⁹ Мухитдинов Ф.М. «Юриспруденция» мутахассислиги «Жиноят ҳуқуқи» соҳасининг «Виктимология» фани бййича ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2019. – 240 б.

аёллар қарийб икки баробар кўпдир. Аёллар ва эркаклар жиноятлари ўртасидаги бу каби фарқнинг мавжудлигига сабаб маълум бир ижтимоий омиллар мажмуи таъсирида аёл ва эркакларда ўзига хос бўлган ўзини тутиш каби хусусиятларнинг шаклланганлигидир.

Маиший турмуш соҳасида юзага келадиган жиноятларда криминоген фаоллик асосан 18-30 ва 31-40 ёшли шахслар ҳаракатларида кузатилади. Бу, албатта, ушбу эшдагилар ижтимоий мавқеининг ўзига хослиги билан эътиборга лойиқлигидир. Алоҳида эътиборнинг 25-30 ёшлиларга қаратилиши бу ёшдаги шахслар ҳаётида юз берадиган оила-никоҳ муносабатларининг юзага келиши, янги мажбуриятлар ва ўзини тутиш каби ўзаро муносабатларнинг шаклланиши билан боғлиқдир. Айнан шу даврда оилавий қарама-қаршиликларнинг пишиб этилиши ва кучайиши рўй беради. Маиший турмушдаги бу каби салбий ҳолатлар кўрсаткичларининг мавжудлиги эса оила бузилиши статистикасининг юқорилигини ҳам ифодалайди.

Ўзбекистонда аҳолининг ўзига хос удум ва урф-одатлари асосида оилавий муносабатлар ташкил этилган бўлса-да, ажралиш нисбати 25-30 ёшлиларга тўғри келиши ачинарли ҳолдир. Бу эса турмушда ажралиш ва жиноят содир этилишининг ўзаро бир-бирига ўхшаш тарзда юзага келаётганлигининг ифодасидир. Шунингдек, никоҳ ва оила ёшининг 17-18 ёшга қамаётганлиги ҳам ўзига хос тадқиқотлар ўтказилишини талаб этмоқда. Чунки бу ёшдаги ёшларнинг оила ва никоҳ муносабатларига кириб келиши профилактик чоратадбирларнинг алоҳида тарбиялаш чораларини нафақат ёшларга, балки шу ёшдагиларнинг оила қуришларига сабаб бўлаётган шахсларга ҳам қаратилишини талаб этмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, маиший турмуш соҳасида зўравонлик содир этувчи ҳуқуқбузар шахсларда раҳм-шафқат ришталарининг камлиги, иш билан банд этилмаганлигини, оиладаги етишмовчиликлар ёки уларнинг хулқ-атворида агрессивлик ҳолатига тушиб қолишликни ўз яқинларига нисбатан турли кўринишдаги зўравонликларни содир этишида намоён бўлишини билдирди. Бундай тоифадаги шахслар асосан, зўравон, жабр-зулм қилувчи, жабрловчи, зулмкор шахслар эканлигини алоҳида таҳлил қилиб, бу борада тегишли профилактик тадбирларни кучайтиришни талаб этади.

ХУЛОСА

Мақолада маиший турмушда содир этиладиган жиноятларнинг турлари, сабаблари ва уларнинг ҳуқуқий оқибатлари таҳлил қилинди. Тадқиқот натижалари кўрсатдики, оилавий зўравонлик, шахсга қарши ва мулкий жиноятлар жамиятдаги мураккаб ижтимоий-иқтисодий вазият, ахлоқий қийинчиликлар ва нотўлиқ қонунчилик тизими туфайли кенг тарқалган ҳолатдадир. Бундай муаммолар нафақат жамият хавфсизлигига, балки оилавий муносабатларга ҳам жиддий зарар етказиши мумкин.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, маиший жиноятларнинг олдини олиш учун фақат қонунчиликдаги ўзгаришлар эмас, балки ижтимоий тарғибот, ахлоқий-маънавий тарбия ва иқтисодий барқарорликни таъминловчи комплекс чора-тадбирлар зарур. Давлат, ҳуқуқ муҳофазаси органлари ва жамоатчилик биргаликда ишлаб, ушбу муаммоларни камайтиришга қаратилган чораларни амалга ошириши керак. Келгуси тадқиқотлар ушбу соҳанинг барқарор ривожланиши ва амалий чора-тадбирларни такомиллаштириш йўлида муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. –Тошкент: Адолат, 2022. – 396 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Тошкент: Адолат, 2021. 475 б.
3. Муҳитдинов Ф.М. «Юриспруденция» мутахасислиги «Жиноят ҳуқуқи» соҳасининг «Виктимология» фани баянча ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – 240 б.
4. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм.— Т., 2021.— 608 б.
5. Нажимов М.Ш. Оилага ва ёшларга қарши жиноятлар учун жавобгарликни такомиллаштириш. Юридик фанлар доктори даражасини олиш учун ёзилган дисс автореферати. – Тошкент: ҚҚДУ, 2023. – 63 б.

TALABALARINING FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Kubeysinova N

Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri – talabalarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy faoliyatda, balki hayotning turli sohalarida ham zarur bo'lgan muhim qobiliyatdir. Bu ko'nikma talabalarni faqat o'qituvchidan mustaqil ravishda fikr yuritishga, tahlil qilishga va muammolarni samarali hal qilishga o'rgatadi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatishdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash talabalarga akademik sohada muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi, shuningdek, ularni real hayotdagi murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

Tanqidiy Fikrlashning Ahamiyati

Tanqidiy fikrlash, o'z navbatida, talabalarning nafaqat bilimlarni to'g'ri o'zlashtirishi, balki ularni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlashning asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Muammoni aniqlash va tahlil qilish – Tanqidiy fikrlash jarayonida talabalar avvalo o'rganilayotgan masalani aniqlab, uning mohiyatini to'liq tushunishlari kerak. Bu talabalar muammolarni tahlil qilish va eng yaxshi echimni topish uchun muhimdir.
2. Dalillarni baholash – Tanqidiy fikrlashning muhim jihatida bu dalillarni sinchkovlik bilan tahlil qilish va ularni turli manbalardan solishtirishdir. Talabalar olingan dalillarni baholab, ularning ishonchliligini aniqlashlari lozim.
3. Alternativ nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish – Tanqidiy fikrlash, talabalarni faqat bitta nuqtai nazar bilan cheklanmasdan, boshqa qarashlarni ham ko'rib chiqishga undaydi. Bu ularga muammoni yanada kengroq va chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash faqat akademik sohada emas, balki shaxsiy va professional hayotda ham zarur bo'lgan ko'nikmadir. Talabalar tanqidiy fikrlashni o'zlashtirganlarida, ular har qanday vaziyatni tahlil qilishda mantiqiy yondashuvni qo'llay oladilar.

Oliy Ta'limda Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirish Usullari

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda bir qancha samarali metodlar mavjud. Quyidagi yondashuvlar va

metodlar talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

1. Seminarlar va guruh muhokamalari

○ Seminarlar va guruh muhokamalari talabalarni faol ishtirok etishga, fikr almashishga va tahlil qilishga undaydi. Bu metod talabalarni turli fikrlar va nuqtai nazarlarni tinglashga, o'z fikrlarini asoslashga va boshqalar bilan muloqot qilishga o'rgatadi. Guruh muhokamalari talabalarga masalani kengroq ko'rish va qarorlar qabul qilishda turli perspektivalarni baholash imkoniyatini yaratadi.

2. Case-study (Holat Tadqiqoti)

○ Case-study metodida talabalar real yoki virtual holatlar asosida tahlil o'tkazadilar. Ushbu metod, talabalarni konkret vaziyatlarda qaror qabul qilishga va muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Case-study yordamida talabalar nafaqat mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llashni, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ham o'rganadilar. Holat tadqiqotlari talabalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga, shuningdek, yangi yechimlar izlashga undaydi.

3. Yozma ishlar va insho

○ Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yozma ishlar, insholar va kritik yozuvlar muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'z fikrlarini aniq, lo'nda va mantiqiy ifodalashni o'rganadilar. Yozma ishlar orqali talabalar o'z bilimlarini tizimlashtirish, dalillarni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Bu metod orqali talabalar o'zlarining yozma fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Interaktiv o'qitish metodlari

○ Zamonaviy texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarini qo'llash talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Interaktiv o'qitish metodlari talabalarni faqat ma'lumotni qabul qilishga emas, balki o'rganilayotgan mavzu bo'yicha faol ishtirok etishga undaydi. Onlayn muhokamalar, virtual sinflar va simulyatsiyalar talabalar uchun interaktiv o'qitishning samarali vositalaridan hisoblanadi.

Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirishdagi Qiyinchiliklar

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar va o'qituvchilar duch keladigan ba'zi muammolar quyidagilardir:

1. Talabalar orasida passivlik

○ Ko'plab talabalar hali ham an'anaviy o'qitish metodlariga ko'proq o'rganib qolgan. Ular ko'pincha o'qituvchidan to'g'ri javoblarni kutishadi va o'z fikrlarini izohlashda ikkilanishadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammo tug'diradi. Talabalar mustaqil fikrlashga o'rgatilishi va o'z fikrlarini ifodalashga undalishi kerak.

2. O'qituvchilarning metodologik cheklovlari

○ Ba'zi o'qituvchilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan interaktiv va innovatsion metodlarni qo'llashda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. An'anaviy ta'lim usullarini qo'llash ba'zi hollarda talabalarni passivlashtirishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarning o'z metodologiyalarini yangilashlari, interaktiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi yondashuvlarni qo'llashlari muhimdir.

Innovatsion Yondashuvlar va Kelajakdagi Imkoniyatlar

Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar tanqidiy fikrlashni yanada samarali rivojlantirishlari mumkin. Masalan:

1. Virtual simulyatsiyalar – Talabalar haqiqiy hayotdagi holatlarni o'rganish va tahlil qilishda simulyatsiyalarni qo'llashlari mumkin. Bu orqali talabalar muammolarni amaliy tarzda hal qilishni o'rganadilar.

2. Onlayn o'qitish platformalari – Oliy ta'limda onlayn ta'lim platformalari orqali talabalar o'qish materiallarini interaktiv tarzda o'rganadilar. Bu usul talabalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi bilimlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash – bu talabalar uchun nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishishda, balki hayotdagi murakkab muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmadir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchilar zamonaviy metodlar va texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishlari zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. АРАБОВА М., БЕРДИЕВА Ф. “ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ” jurnal ZAMONAVIY TA'ILIM / 2014, 7 54- bet

2. Рубинштейн С.Л. О природе мышления и его составе: психология мышления / С.Л. Рубинштейн. – М.: Педагогика, 1991. – 80 с.

3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: учеб. для студентов высш. и сред. пед. учеб. заведений / С.А. Смирнов [др.]; под ред. С. А. Смирнова. – 5-е изд., стер. – М.: Академия, 2004. – 512 с.

4. Солсо Р. Когнитивная психология / Р. Солсо. – СПб.: Питер, 2006. – 589 с.

5. Халперн Д. Психология критического мышления / Д. Халперн. – СПб.: Питер, 2000. – 240 с.

6. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: «Ўқитувчи», 1996

THE IMPORTANCE OF AUDIO-VISUAL AIDS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE

E'zozaxon Suyunova

Sophomore student at Uzbekistan State World Language University.

ezozaxonsuyunova@gmail.com

Kasimova Shokhida

*Supervisor: A teacher of the department "Practical aspects of the English language" of
Uzbekistan State World Language University, English Philology faculty;*

s.qosimova@uzswlu.uz

Abstract: *In the contemporary era, with the advent of new technologies learning process is more straightforward and no longer complex to integrate with different languages for both educators and students. For this reason there is a growing tendency towards using audio-visual tools - instructional devices in which the message can be heard and seen simultaneously (AV aids) during study journey. It is highly recommended to use AV within learning because of certain benefits including enriching vocabulary acquisition, pronunciation and student engagement. This article focuses on learners' attitudes and perceptions about audio-visual materials. The results show that it is an efficient method to improve general language learning. Meanwhile they said that a coordinated learning approach, combining both conventional and modern techniques, could be the most effective strategy for gaining knowledge.*

Key words: *Audio-visual aids, foreign language learning, vocabulary acquisition, pronunciation improvement, student engagement, language teaching methods, educational technology*

INTRODUCTION

Audio-visual aids are teaching and studying materials that use both sound and image to improve learning process. They help make lessons more engaging, advancing comprehension, and aid retention of information. These kind of tools are comprised of charts, posters, flashcards with podcasts, records, video-films etc. Extensive research in language education highlights the effectiveness of audio-visual aids in enhancing vocabulary acquisition, pronunciation and overall engagement in second language learning. Initial point belongs to Talabi who is famous linguist and editor. He claimed that it is when audio and video materials are combined to enhance the teaching and learning process. These tools make learning more interactive and interesting, capturing students' attention. This method helps educators keep students intrigued in subject. Another research was done by Hortano in 2013 shows that the significant difference between the vocabulary of students who were taught by using audio - visual media and those who were not using it. While the former one offers more productivity and

efficiency. Students felt enthusiastic about learning new languages by audio-visual equipments to enrich vocabulary acquisition. Furthermore in terms of Syarifah Rahmi Muliana's perspective, audio -visual aids can pick up natural pronunciation and intonation skills. They have a chance to introduce with other cultural backgrounds by learning different language which it results students can imitate spontaneously towards native speakers.

The initial research shows that AV aids students to engage in learning quickly and it makes more easier teaching process. Students have a chance to make a conversation with each other in order to discuss what they see and hear through AV materials. Teachers can use different tools to enhance interactive atmosphere among learners including videos, role-playing activities, and presentations to foster students' curiosity towards certain linguistic subjects. This approach is particularly beneficial for young generation who are struggling with conventional text-based instruction.

The second one was investigated by Hortano (2013) highlights the significant difference between students who use AV aids and those who do not. According to its results, we can see more productive and effective consequences of AV aid users. They tend to acquire vocabulary more efficiently since they associate words with images, sounds, and real life contexts. Interactive videos which as soon as students see them, they are obsessed with its appealing characteristics, storytelling animations, language learning apps provide an engaging way to introduce new language and reinforce new words.

One of the most compelling research done by S.R. Muliana say that AV aids help learners develop natural pronunciation and intonation by observing native speakers language patterns. Listening to authentic conversations, songs, podcasts allow students to imitate correct pronunciation, rhythm, and putting true stress and leading more fluent communication. For this study, we tried to use survey method as the primary research approach. Its aim is to gather information about people's attitudes, opinions, and experiences belonging to the use of audio-visual tools in second language learning. It included 20 participants who gave their insights about the significance of AV. When they claimed their opinions, it is undeniable that there are some advantages and disadvantages. As far as benefits of survey method, using of multiple-choice questions make it easier to analyze responses, requiring fewer resources rather than experimental research, and taking less time. When it comes to drawbacks, as a result of limited choices , participants can not express their perspectives thoroughly, some people prefer group responses than their own belief.


There are five questions about AV material aids usage:

- 1) How often do you think teachers should use audio-visual aids in class?
- 2) Do you feel that words and phrases learned through AV materials are easier to remember compared to those learned from traditional textbooks?

3) How often do you personally use audio-visual aids when learning foreign language?

4) What is the biggest advantage of using audio-visual aids in learning different language?

5) What type of audio-visual materials do you find the most effective for learning language?



When survey was conducted among students related to AV aids in different ways, their responds were like that:

The first question is what they think how often teachers should use AV tools in foreign language lessons. Out of 20 respondents, 9 people believe that audio-visual aids should be used in every lesson, as they make learning more engaging and improve pronunciation and vocabulary retention. Meanwhile, 7 respondents think they should be used occasionally, as they are beneficial for certain topics but may not be necessary for all lessons. On the other hand, 3 people feel that traditional methods are more effective, and 1 respondent does not see any necessity for using audio-visual aids in language learning. The second question is how they feel about words and phrases learned through AV materials are easier to remember compared to traditional textbooks. Half of the respondents (10 people, 50%) stated that they always remember vocabulary better when using audio-visual aids because visuals and audio create stronger memory connections. Another 6 respondents agreed that audio-visual tools sometimes help them remember words better, but they still find traditional learning methods useful. However, 3 respondents reported no difference between the two methods, and 1 respondent preferred traditional textbooks, believing that reading and writing lead to better.

In terms of third surveyed questions' results show that students were tested what the main benefit of AV tools for their learning process. The most common response, chosen by 9 respondents, was that audio-visual aids help with pronunciation and

intonation by exposing learners to native speech patterns. Another 6 respondents believed that the biggest benefit is vocabulary retention, as words learned through videos and images are easier to remember. Additionally, 5 people mentioned that these tools make learning more engaging and enjoyable, while no-one felt that audio-visual aids primarily help with understanding cultural context.

The next one is about whether recommending AV aids as primary method for second language learning rather than conventional methods. A majority of 11 respondents recommended using audio-visual aids over traditional methods rather than relying on them as the sole learning tool, while 6 participants strongly supported using them as a primary method, arguing that they create an interactive learning experience. However, 2 respondents were unsure about their effectiveness, and 1 person did not recommend them, stating that structured textbooks and grammar exercises are more reliable. The last question was given about how often students use audio-visual materials to learn new language. A majority of 8 respondents reported using audio-visual aids several times a week, while 6 participants use them daily. Meanwhile, 4 respondents rarely rely on them, and 2 people never use such tools, preferring traditional study methods instead.

In conclusion, the reason we used this methodology is that previous studies were based solely on theory, we tried to get results from real process. The findings show that AV materials are considered more useful for enhancing vocabulary, pronunciation and engagement. This research is valuable for teachers, students and educational researchers to develop language learning strategies. Because this article shows that almost 50% of respondents said it is an efficient technique to gain as well as educate language learners with the help of audio-visual tools.

REFERENCES:

1. Muliana, S. R. (2019). Improving pronunciation skills through multimedia learning. *International Journal of Applied Linguistics*.
2. Hortano, John. "The Impact of Audio-Visual Aids on Vocabulary Acquisition." *Journal of Language Teaching Studies*, vol. 10, no. 2, 2013.
3. British Council. "Using Technology in Language Learning." British Council, 5 May 2022, <https://www.britishcouncil>.

**INTERNET VA TA'LIM : RAQAMLI RESURLAR ORQALI TA'LIM OLISH
IMKONIYATI.**

**ИНТЕРНЕТ И ОБРАЗОВАНИЕ: ДОСТУП К ОБРАЗОВАНИЮ ЧЕРЕЗ
ЦИФРОВЫЕ РЕСУРСЫ.**

**INTERNET AND EDUCATION : ACCESS TO EDUCATION THROUGH DIGITAL
RESOURCES.**

Raximova Dilnoza Davronovna

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası
o'qituvchisi*

Nabiyeva Feruza Ravshanovna

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası
TJBT fakultet talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolani yozishdan maqsad internet va ta'lim sohasida raqamli resurslarning ko'pligini batafsil namoyish etish va bu yangi texnologiyalar hozirgi kunda ta'lim sohasiga keltirayotgan ulkan kashfiyotlar sababchisi ekanini olib chiqish. Hamda raqamli resurslar yosh avlodga ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar berayotganini ochishdir .

Kalit so'zlar: Ijtimoiy munosabatlar, pedagogik g'oyalar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish , moddiy-texnika bazasi, "Ta'lim to'g'risidagi qonun, "tashxis markazlari tashkil etish, "Butun jahon o'rgimchak to'ri", kompyuter savodxonligi, internet tezligi , milliy axborot qidiruv tizimi ,

Аннотация: Цель написания статьи-детально продемонстрировать многообразие цифровых ресурсов в сфере интернета и образования и показать, что эти новые технологии в настоящее время являются причиной огромных открытий, которые мы приносим в образовательную сферу , и раскрыть , что цифровые ресурсы предоставляют молодым поколениям новые возможности в образовательной сфере.

Ключевые слова: Социальные отношения, педагогическое идеи, социально-экономическая структура, материально-техническая база, право на образование, диагностические центры, всемирная паутина, компьютерная грамотность, скорость интернета, национальная информационная поисковая система.

Annotation: The purpose of writing this article is digital in the internet and education to taking into account the fact that the day brings to the field of education is the cause of huge discoveries out-put and digital resources new spelling in the field of education for the younger generation it is to open the giving.

Key words: *Social relations, pedagogical ideas, socio-economic structure, material and technical base, law on the mountain of education ,diagnostic centers, the entire world spiderweb, computer literacy,internet speed, National information search engine.*

Ta'lim – bilim berish , malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim o'qitish tushunchasini anglatadi va bu metod keng tarqalgan deb hisoblanadi. Ta'lim sohasi mazmun va mohiyatni jamiyatga moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj kishilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga ko'mak beradi ,hamda ta'lim to'g'risidagi pedagogic g'oyalarga qarab yoshlarni o'sha sohada yo'naltiriladi. Hozirgi kunga kelib ta'limning mohiyati hamda metodologiyasi zamon talabiga mos holda o'zgarib bormoqda. Ta'limda nazardan chetda qolmaydigan metod bu o'qituvching dars berish jarayonidir. Bu soha vakili avvalam bor dars jarayonini o'tib biladigan , pedagogik mahoratga boy hamda yosh avlodni zamon talabiga mos ravishda qunt bilan o'qitadigan bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan — komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

So'nggi yillarda internet va raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu texnologiyalar ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, o'quvchilarga yangi bilim manbalariga erishish imkonini bermoqda. Pandemiya davrida dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari raqamli texnologiyalarga o'tishga majbur bo'ldi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlarda 15 yoshli o'quvchilarning 63% tahsil oladigan maktablar raqamli qurilmalardan foydalanish zarurligi haqida yozma bayonotlar qabul qilgan. Shuningdek, 60% maktablarda o'quvchilarni internetdan foydalanish intizomi va mas'uliyatiga o'rgatish bo'yicha maxsus kurslar o'tkaziladi.

PISA 2018 yilgi tadqiqotiga ko'ra, IHTT mamlakatlarida 15 yoshli o'quvchilarning 65% o'qiyotgan maktablar direktorlari o'qituvchilarining raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ko'nikmalariga ega ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, 50% o'quvchilar o'qiyotgan maktablarda onlayn platformalar mavjud. Masalan, Singapur va Xitoyning ba'zi hududlarida o'quvchilarning 90% dan ortig'i onlayn platformalarga ega maktablarda tahsil oladi. O'zbekiston Respublikasi ham raqamli ta'limni rivojlantirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

O'zbekistonda raqamli ta'lim ekotizimini shakllantirish va aholini ushbu sohaga jalb qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) va uning 6

ta filiali, Toshkent shahridagi Inha va Amity universitetlari tomonidan 35 dan ortiq mutaxassisliklar bo'yicha 29 ming nafardan ortiq oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlanmoqda. 2022 yilda "EPAM Systems" xalqaro IT-kompaniyasi bilan hamkorlikda "IT-Park University" raqamli universiteti faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, respublika bo'yicha 205 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazlarida 128 ming nafardan ortiq tinglovchilar, jumladan, 33 ming nafari davlat xodimlari malakasini oshirdi. 2022 yilda IT-Park rezidenti bo'lgan xususiy ta'lim markazlari soni 191 taga yetdi. [1]

Statistika agentligining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun holatiga ko'ra, O'zbekistonda 10 va undan katta yoshdagi aholining ta'lim muassasasida internetdan foydalanayotganlar ulushi 12,3% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda 3,6%, 2022-yilda 5,5%, 2023-yilda esa 9% ni tashkil etgan edi. 2023/2024-o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlarining sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni 607,6 ming nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020/2021-o'quv yilida 118,1 ming nafar, 2021/2022-o'quv yilida 228,0 ming nafar, 2022/2023-o'quv yilida esa 381,8 ming nafarni tashkil etgan edi. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi UNICEFning "Learning Pioneers" (ta'lim pionerlari) dasturida ishtirok etadigan 6 ta chempion davlatlardan biri sifatida tanlandi. Ushbu dastur ta'lim tizimini o'zgartirishga yordam beradigan innovatsion yondashuvlar va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan. [2]

2022-yilda UNICEF Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda "Bolalik Akademiyasi" raqamli platformasini ishga tushirdi. Ushbu platforma maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun malaka oshirish kurslari, mashg'ulotlar rejalari va qo'shimcha o'quv materiallarini taqdim etadi. Bu orqali 1,5 millionga yaqin bolalarning o'qish va rivojlanish natijalarini yaxshilash ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z o'rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor — qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug' kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlilik, ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish talab etiladi. Bu esa farzandlarimizning chuqur bilim egallashlarida asosiy rol o'ynaydigan sifatli darsda namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz ko'pincha raqamli resurslar ta'lim olish uchun eng qulay usul bo'lganligi sababli, Evropa texnika-texnologiyalariga tayangan holda interner orqali ta'lim olishni afzal ko'rmoqdalar. Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini

umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda o'quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quvchi shaxsini rivojlantirishning to'laqonli vositasiga aylantirish uchun o'qituvchining o'zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon bo'lishi kerak.

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ (o'zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;
- 4) axborot vositasida o'zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo'lishi;
- 5) o'zini refleksiylash (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo'lishi;
- 6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o'zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirish.

Quyida onlayn ta'lim olishning SWOT tahlili amalga oshirildi.

S (Strengths) – Kuchli tomonlari

1. Keng qamrovli ta'lim imkoniyatlari – Raqamli resurslar orqali har qanday joydan turib ta'lim olish mumkin.
2. Xarajatlarni tejash – Onlayn ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan arzonroq bo'lishi mumkin.
3. Moslashuvchanlik – O'quvchilar o'z vaqtini mustaqil rejalashtirib, istalgan paytda o'qishlari mumkin.
4. Turli xil o'quv materiallari – Video darslar, interaktiv testlar, elektron kitoblar kabi turli resurslar mavjud.

5. Global o'rganish imkoniyati – Dunyoning istalgan universitetidan yoki professorlaridan bilim olish mumkin.

W (Weaknesses) – Zaif tomonlari

1. Internetga bog'liqlik – Sifatli ta'lim olish uchun yuqori tezlikdagi internet kerak.

2. O'zini o'zi boshqarish muammosi – O'quvchilar uchun o'z-o'zini nazorat qilish qiyin bo'lishi mumkin.

3. Amaliy mashg'ulotlar yetishmovchiligi – Raqamli ta'lim ko'proq nazariyaga asoslangan, amaliy bilim olish qiyin.

4. Motivatsiya pasayishi – O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi jonli muloqotning yetishmovchiligi motivatsiyani kamaytirishi mumkin.

5. Texnik muammolar – Elektr ta'minoti va qurilmalar sifati ta'lim jarayoniga ta'sir qilishi mumkin.

O (Opportunities) – Imkoniyatlar

1. Raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish – O'zbekistonda Coursera, Udemy, EdX kabi platformalar bilan hamkorlikni kengaytirish.

2. O'quv dasturlarini moslashtirish – Internet orqali ta'lim milliy dasturlarga moslashtirilishi mumkin.

3. Texnologik rivojlanish – Sun'iy intellekt va VR texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin.

4. Xalqaro ta'lim imkoniyatlari – O'zbek talabalariga dunyoning yetakchi universitetlarida ta'lim olish imkoniyati yaratish.

5. Davlat dastklari – Hukumat tomonidan onlayn ta'limni rivojlantirish bo'yicha grant va subsidiyalar ajratilishi mumkin.

T (Threats) – Xavflar

1. Raqamli tafovut – Qishloq joylarida internet sifati pastligi ta'lim olish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

2. Kiberxavfsizlik muammolari – Shaxsiy ma'lumotlar va akademik natijalar xavfsizligi muammosi mavjud.

3. Akademik halollik masalasi – Onlayn imtihonlarda ko'chirish va firibgarlik ehtimoli yuqori.

4. An'anaviy ta'lim muassasalariga ta'siri – Raqamli ta'lim an'anaviy universitet va maktablarning rolini pasaytirishi mumkin.

5. Ish beruvchilarning munosabati – Ba'zi kompaniyalar onlayn sertifikatlarni an'anaviy diplomga nisbatan kamroq qabul qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, raqamli ta'lim imkoniyatlari kundan-kunga kengayib bormoqda. O'zbekiston bu yo'nalishda muhim qadamlar qo'ymoqda, biroq internet sifati, texnologik infratuzilma va o'quvchilarni motivatsiya qilish masalalariga e'tibor qaratish zarur. SWOT tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli

ta'limning afzalliklari ko'p bo'lsa-da, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik, psixologik va akademik qiyinchiliklarni bartaraf etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirzapo'latovich, Ergashev Otabek. "OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ONLINE-ELEKTRON TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI." Miasto Przyszłości 47 (2024): 210-215.
2. Turdaliyeva, N.A. va M.Y.Eshnazarova. "ZAMONAVIY ELEKTRON TA'LIM: INTERAKTIV PLATFORMALAR VA MOSLASHUVCHAN YONDASHUVLAR." TA'LIM BARKARLIGI, IJTIMOIIY-IQTISODIY FAN NAZARIYASI 2.23 (2024): 36-38.
3. Azimov, B., F. Toshev, D. Raximova. "TA'LIM." FAN VA INNOVATSIYA .
4. Yunusovna, NK, & Davronovna, RD Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning roli. JournalNX , 214-216.
5. Raximova, Dilnoza. "ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEKNIKAVIY SALOHIIYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH." Iqtisodiyot va ta'lim 25.1 (2024): 375-385.
6. Raximova, Dilnoza va Ruxsora Alimova. "BIZNESDA ESG TAMOIYILLARINI QOLLASH-INNOVATSION IQTISODIYOTNING MUHIM YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA." Prioritetnye napravleniya, sovremennye tendentsii va perspektivy razvitiya finansovogo rynka (2023): 362-365.
7. mitc.uz
8. stat.uz

ИНДИВИДУАЛЬНАЯ ПРОФИЛАКТИКИ КАРИЕСА У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Махмудов Завқиддин Садуллоевич

Начальник амбулаторно-поликлинического центра Центрального военного клинического госпиталя Министерство Обороны Республики Узбекистана

Под клиническим наблюдением находились 92 пациента в возрасте от 17 до 65 лет, которым было проведено лечение 118 зубов с кариесом дентина. В зависимости от методики антисептической обработки кариозной полости все пациенты, включенные в исследование, были разделены на 3 группы. В группах 1 и 2 проводилась обработка кариозных полостей зубов с 6 применением фотодинамической терапии, в группе 3 (контрольной) - традиционная антисептическая обработка кариозной полости 0,12 % раствором хлоргексидина.

Остальные этапы лечения кариеса во всех группах были одинаковыми. При постановке диагноза кариеса пользовались общепринятой классификацией МКБ-10. При обследовании пациентов применялись лабораторные (микробиологические), функциональные (лазерная доплеровская флоуметрия), общеклинические, рентгенологические и электрометрические методы.

Забор материала для первичного микробиологического исследования проводили после раскрытия кариозной полости и механического удаления нежизнеспособного дентина. Область исследуемого зуба изолировали при помощи коффердама.

Сбор материала производили путем соскобов дентина со стенок кариозной полости стерильным стоматологическим экскаватором №2. Повторное взятие материала осуществляли в группах 1 и 2 после проведения фотодинамической терапии, в контрольной группе - после обработки кариозной полости раствором хлоргексидина. Таким образом, получали две группы образцов дентинных опилок, взятые до и после антисептической обработки кариозной полости.

Полученные образцы дентинных опилок помещали в пробирку типа Eppendorf, содержащую 500 мкл физиологического раствора, перемешивали и отправляли в микробиологическую лабораторию. Для выявления в материале маркерных фрагментов ДНК бактерий *Fusobacterium* spp., *Enterococcus faecalis*, *Candida albicans*, *Veillonella* spp., *Prevotella intermedia* применяли метод мультиплексной ПЦР, позволяющий исследовать 2 и более праймеров нескольких возбудителей. Всего в ходе работы с помощью ПЦР-диагностики выполнено 236 микробиологических исследований.

Бактериологическое исследование проводили в соответствии с общепринятыми методами. Для культивирования кариесогенных стрептококков использовали специальные питательные среды (5% геминагар, митис-саливариус агар). Посевы выдерживали в термостате при температуре 37° С в течении 3-5 суток. На основании культуральных, морфологических и биохимических признаков идентифицировали выделенные микроорганизмы.

Определяли видовой и количественный состав полученных штаммов. Всем пациентам проводилось комплексное клиническое обследование по общепринятой методике с изучением субъективных и объективных данных.

На основании данных анамнеза выясняли характер, интенсивность болевых ощущений, время их возникновения и продолжительность болевого приступа, наличие реакции на температурные и другие виды раздражителей. Объективное исследование включало в себя осмотр полости рта, зондирование стенок и дна кариозной полости, перкуссию зубов, определение гигиенического индекса 0Н1-8, состояние слизистой десневого края, КПУ. Для уточнения диагноза и оценки качества пломбирования зубов использовали внутриротовые («прицельные») рентгеновские снимки.

Данным постановлением определено увеличение доли производства электроэнергии с использованием ВИЭ до уровня не менее 25% к 2030 году.

В этой связи следует отметить, что в последние годы страны с теплым климатом такие как: Греция, Индия, Египет, Китай, а также северные страны Россия, Германия, Швеция и др. стали уделять значительное внимание проведению научных исследований, связанных с использованием плоских

солнечных воздушных нагревателей (ПСВН) (рис.1), обеспечивающие тепловой энергией жилые дома и сушильные установки без дорогостоящих конструктивно–технологических решений, а также осуществляющие быстрый прогрев помещений. Такой коллектор несмотря на то, что воздух имеет более низкую теплоемкость, может обеспечить равномерное распределение тепла, хорошо регулируется как по температуре, так и по количеству подаваемого воздуха. Кроме того, коллекторы, работающие в условиях естественной конвекции, могут удачно сочетаться с традиционной системой отопления.

Известно, что при вынужденной конвекции главным недостатком плоских воздушнонагревателей является их низкая теплопередача от стенок абсорбера к воздушному потоку. Так, как коллектор работает при определенном расходе теплоносителя, то увеличение скорости, а соответственно, расхода воздуха в канале коллектора не всегда приводит к увеличению теплосъема с единицы поверхности абсорбера, по той причине, что температура стенки абсорбера снижается пропорционально скорости воздушного потока при данном потоке солнечного излучения. Поэтому, воздушный коллектор отличается от промышленных теплообменных аппаратов, в которых температура стенки теплообменника постоянна. По мере снижения температуры стенки абсорбера снижается, полезная разность температур между стенкой и воздушным теплоносителем и, как следствие, понижается коэффициент теплоотдачи. Следовательно, резко снижается эффективность рекуперации тепла в коллекторе и, практически, коллектор не может обеспечить требуемую температуру воздуха на выходе из нагревателя. Очевидно, что только оптимальное соотношение между расходом воздуха поверхностью коллектора и теплоотдачей приводит к полноценной работе и эксплуатации нагревателя.

Поэтому, для анализа эффективности плоского коллектора наряду с традиционным понятием К.П.Д. коллектора для плоских воздушных нагревателей (при низких скоростях теплоносителя, когда можно не учитывать аэродинамические потери) целесообразным считается использование понятия эффективности рекуперации тепла в солнечном воздушнонагревателе, которое может характеризовать работу коллектора с точки зрения выбора оптимальных соотношений его теплотехнических показателей. Эффективность рекуперации теплоты в ПСВН определяется отношением между теплом, полученным в действительности к максимально возможно воспринятым теплом (в идеальном случае).




Рис.1 Плоский солнечный воздухонагреватель

Из уравнения теплового баланса, составленного для ПСВН в течении короткого промежутка времени, получим:

$$Q_1 = Q_2 + Q_3 \quad (1)$$

Уравнение (1) является уравнением теплового баланса, где Q_1 – эта теплота, получаемая от идеального коллектора (не имеющего потерь), Q_2 – полезно полученное тепло в коллекторе Q_3 – потери тепла в коллекторе. В расчетах коэффициента эффективности в конкретный момент времени и излучения температура абсорбера принимается постоянной. $Q_1 = G_{cp}(t_{ct} - t')$ - максимально возможное использование теплоты в ПСВН, Вт.

$Q_2 = G_{cp}(t'' - t')$ – полезно использованное теплота в ПСВН, Вт.

$Q_3 = G_{cp}(t_{ct} - t'')$ – недоиспользованное тепло в ПСВН вследствие не совершенности теплообмена между абсорбером и воздушным потоком, Вт.

G, c_p – соответственно расход (кг/с), и теплоемкость воздуха, кДж/кг°C.

Подстановка вышеуказанных выражений в формулу (1) дает:

$$t_{ct} - t' \approx (t'' - t') + (t_{ct} - t'') \quad (2)$$

Расход и теплоёмкость воздуха считается постоянной

$$1 = \frac{t'' - t'}{t_{ct} - t'} + \frac{t_{ct} - t''}{t_{ct} - t'} \quad (3)$$

Обозначая через:

$$\varepsilon = \frac{t'' - t'}{t_{ct} - t'} \quad \text{и} \quad \varepsilon_{\text{пот}} = \frac{t_{ct} - t''}{t_{ct} - t'}$$

$$\text{Получим:} \quad 1 = \varepsilon + \varepsilon_{\text{пот}} \quad (4)$$

$$\text{или} \quad \varepsilon = 1 - \varepsilon_{\text{пот}} \quad (5)$$

Будем считать ε – эффективностью рекуперации теплоты в ПСВН. $\varepsilon_{\text{пот}}$ - потерями рекуперации теплоты в ПСВН. Таким образом, уравнение (4) является формулой эффективности рекуперации теплоты в ПСВН. Если, $\varepsilon_{\text{пот}} \rightarrow 0$, то $\varepsilon \rightarrow 1$. Следовательно, при малых потерях рекуперации теплоты, т.е. при совершенности теплообмена, эффективность рекуперации тепла в ПСВН стремится к своему максимуму.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Shouket, H. A., Ameen, I., Tursunov, O., Kholikova, K., Pirimov, O., Kurbonov, N., ... & Mukimov, B. (2020, December). Study on industrial applications of papain: A succinct review. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012171). IOP Publishing.
2. Turdiboyev, A., Aytbaev, N., Mamutov, M., Tursunov, A., Toshev, T., & Kurbonov, N. (2023, March). Study on application of electrohydraulic effect for disinfection and increase of water nutrient content for plants. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012027). IOP Publishing.
3. Abdullayevich, Q. N. (2023). EFFICIENCY OF USE OF FREQUENCY CONVERTER WITH SMOOTH CONTROL OF ASYNCHRONOUS MOTOR SPEED. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 448-449.
4. Abdullayevich, Q. N. (2023). Ways to Reduce Losses in Power Transformers. Texas Journal of Engineering and Technology, 20, 36-37.
5. Abdullayevich, Q. N., & Elmurodovich, B. O. (2023). ПРОВЕДЕНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ЭЛЕКТРИЧЕСКИМ СХЕМАМ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 1006-1010.
6. Abdullayevich, Q. N. (2023). REDUCING ELECTRICITY LOSSES IN ELECTRICAL DISTRIBUTION NETWORKS DUE TO MULTICRITERIA OPTIMIZATION OF LINE SECTIONS. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 275-279.
7. Mahmutxonov, S. J., Qurbonov, N., & Babayev, O. (2022). ELEKTR TARMOQLARIDA SIFAT KO 'RSATKICHLARI VA ISROFLAR. Innovatsion texnologiyalar, 47, 14-15.
8. Abdullayevich, Q. N. Muzaffar o'g'li, NT (2023). ASSESSMENT OF THE INFLUENCED FACTORS ON THE INDICATORS OF SPECIFIC ELECTRICITY CONSUMPTION AT INDUSTRIAL ENTERPRISES. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(20), 8-10.
9. Abdullayevich, K. N., & Olimjon o'g'li, E. J. (2024). USING CONSUMER-REGULATORS TO EQUALIZATION OF ELECTRICAL ENERGY SYSTEM LOAD SCHEDULE. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 7(4), 25-29.
10. Abdullayevich, Q. N. Almardon o'g'li, NA, & Bahodir o'g, QOA (2024). INFLUENCE OF ELECTRICAL ENERGY QUALITY ON ELECTRICAL ENERGY WASTE. Научный Фокус, 1(9), 786-789.
11. Abdullayevich, Q. N. (2023). REACTIVE POWER COMPENSATION. IMRAS, 6(6), 506-508.

12. Abdullayevich, K. N., & Olimjon o'g'li, E. J. (2024). FUNCTIONS OF FACTS DEVICES WITH INNOVATION TECHNOLOGY IN THE ELECTRICAL ENERGY SYSTEM. JOURNAL OF ENGINEERING SCIENCES, 7(5), 12-16.

13. Abdullayevich, K. N., & Olimjon o'g'li, E. J. (2024). МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ АВТОМАТИЧЕСКОГО РЕГУЛЯТОРА ВОЗБУЖДЕНИЯ АРВ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 374-379.

14. Abdullayevich, K. N., & Olimjon o'g'li, E. J. (2024). АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ СИЛОВЫХ АВТОТРАНСФОРМАТОРОВ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(21), 45-48.

15. Abdullayevich, K. N. (2024). НОРМАТИВНЫЕ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЯХ 10, 6 и 0, 4 кВ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(21), 55-60.

16. Abdullayevich, Q. N., Almardon o'g'li, N. A., & Bahodir o'g, Q. O. A. (2024). INFLUENCE OF ELECTRICAL ENERGY QUALITY ON ELECTRICAL ENERGY WASTE. Научный Фокус, 1(9), 786-789.

17. Abdullayevich, Q. N., Almardon o'g'li, N. A., & Bahodir o'g, Q. O. A. (2024). ENSURING ELECTRICAL ENERGY QUALITY IN TEXTILE ENTERPRISES. Научный Фокус, 1(9), 794-797.

18. Курбонов, Н. А., Халикова, Х. А., & Неъматов, Б. А. О. (2024). ВОПРОСЫ ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ ЭНЕРГОСИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА, УЗБЕКИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА С УЧЕТОМ НОВОГО СТРОИТЕЛЬСТВА. Eurasian Journal of Academic Research, 4(6-1), 37-41.

19. Usmanov, E., Rajabbоеva, A., Kurbonov, N., & Kurbanova, K. (2024, June). Operational logic scheme of the sketch base for an educational simulator in the fundamentals of power supply. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3152, No. 1). AIP Publishing.

20. Abdullayevich, K. N. (2024). ЭНЕРГИЯНИ ТЕЖАШ ВА ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШДА ЛОЙИХА ЁНДАШУВИДАН ФОЙДАЛАНИШ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(25), 363-367.

21. Abdullayevich, Q. N., & Muzaffar o'g'li, N. T. (2024). NORMALIZATION MODES OF HYDROGENERATORS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(25), 368-371.

22. Abdullayevich, Q. N., & Muzaffar o'g'li, N. T. (2024). FACTORS AFFECTING SPECIFIC ELECTRICITY CONSUMPTION IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(25), 372-376.

23. Abdullayevich, K. N. (2024). ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ СИФАТИНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИСРОФИГА ТАЪСИРИ. PEDAGOG, 7(9), 183-188.

24. Abdullayevich, K. N. (2024). ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ МОНИТОРИНГ РЕЖИМОВ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЕЙ. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(26), 203-208.
25. Abdullayevich, K. N. (2024). ОЦЕНКА ВЛИЯЮЩИХ ФАКТОРОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ УДЕЛЬНОГО РАСХОДА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИИ. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 2(13), 531-536.
26. Abdullayevich, K. N. (2024). ANALYSIS AND EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF ENERGY SAVING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 75-81.
27. Abdullayevich, Q. N., & Abduzairovna, N. M. (2024). ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ ПОДСТАНЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ. Eurasian Journal of Academic Research, 4(9), 71-75.
28. Ixtiyorovich, D. S. (2023). CONDUCTING LABORATORY CLASSES ON ELECTRICAL CIRCUITS. Научный Фокус, 1(1), 84-88.
29. Джураев, Ш. И., & Махмудов, Н. Ш. (2023). ДОСТИЖЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМОВ С ПОМОЩЬЮ ФОТОРЕЛЕ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 55-57.
30. Джураев, Ш. И. (2023). СМЕШАННОЕ СОЕДИНЕНИЕ РЕЗИСТОРОВ. БАЛАНСИРОВКА МОСТА. Scientific Impulse, 1(7), 859-861.
31. Mamarasulova, F., Bobojonov, Y., Djurayev, S., & Karimova, N. (2023). Stimulating environmental protection activities in the energy sector. In E3S Web of Conferences (Vol. 461, p. 01099). EDP Sciences.
32. Ixtiyorovich S. D. et al. АСИНХРОННАЯ МАШИНА С ПЕРЕКЛЮЧЕНИЕМ ПОЛЮСОВ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 768-772.
33. Makhmutkhanov, S., Akhrom, J., Djurayev, S., & Bozorov, I. (2024, June). Stimulating environmental protection activities in the energy sector. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3152, No. 1). AIP Publishing.
34. Файзиев, М. М., Ибрагимов, И. И., Джураев, Ш. И., & Мухаммадиев, А. В. У. (2023). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЛИНИИ ЭЛЕКТРОПЕРЕДАЧ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНОМ ОБЕСПЕЧЕНИИ MATLAB SIMULINK. Наука, техника и образование, (2 (90)), 23-27.
35. Ixtiyorovich, D. S., & Abdullayevna, X. X. (2023). ANALYSIS AND EVALUATION OF ENERGY SAVING EFFICIENCY IN COCONOMOTAL INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scientific Impulse, 1(10), 2144-2149.

36. Ixtiyorovich, D. S. (2023). СТАТИЧЕСКИЕ ОПИСАНИЯ ТРЕХФАЗНОГО ТРАНСФОРМАТОРА С УЧЕТОМ ЧУВСТВИТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 1183-1189.

37. Ixtiyorovich, D. S., & Abdullayevna, X. X. (2023). STABILIZATION OF SINGLE-PHASE LOAD CURRENT IN THREE-PHASE CIRCUITS. Scientific Impulse, 1(10), 1811-1813.

38. Beitullaeva, R., Tukhtaev, B., Norboev, A., Nimatov, K., & Djuraev, S. (2023). Analysis of pump operation in common pressure pipelines using the example of the “Chirchik” pumping station. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 08015). EDP Sciences.

39. Mamarasulova, F., Bobojonov, Y., Djurayev, S., & Karimova, N. (2023). Stimulating environmental protection activities in the energy sector. In E3S Web of Conferences (Vol.461, p. 01099). EDP Sciences.

40. Abdullayevich, K. N., O'G'Li, M. F. A., O'G'Li, E. J. O., & O'G'Li, P. A. B. (2024). MARKOV ZANJIRI USULI VA O 'LCHANGAN SHAMOL TEZLIKLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA YANGI SHAMOL TEZLIKLARINI BASHORAT QILISH. Eurasian Journal of Academic Research, 4(11-2), 7-12.

41. Abdullayevich, K. N., & Abdullayevna, X. X. (2024). EFFECTIVENESS OF USING A FREQUENCY CONVERTER WITH SMOOTH SPEED CONTROL OF AN INDUCTION MOTOR. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(27), 151-154.

42. Abdullayevich, K. N., Shuhrat o'g'li, O. S., & Olimjon o'g'li, E. J. (2024). STRUCTURE OF LOW VOLTAGE ELECTRICAL NETWORKS. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2(5), 112-119.

43. Markaev, N., Abdiraxmonov, I., Davletov, I., & Tukhtaev, B. (2023). Energy characteristics of electrotechnological processing of grape cuttings. In E3S Web of Conferences (Vol. 434, p. 01031). EDP Sciences.

44. Yunusov, R. F., Parmanov, A. E., Karimov, I. N., Rajabov, M. N., Tuxtayev, B. B., & Raxmonov, S. S. (2023, August). Methodology for calculating the characteristics of linear induction motors for low-speed process equipment. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1231, No. 1, p. 012059). IOP Publishing.

45. Ixtiyorovich, D. S., & Bekmurod o'g'li, P. A. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭНЕРГИИ ВЕТРА. Научный Фокус, 2(20), 830-836.

46. Ixtiyorovich, D. S., & Bekmurod o'g'li, P. A. (2025). USING WIND ENERGY. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 7(75), 91-97.

47. Abdullayevich K. N., Shuhrat o'g'li O. S., Olimjon o'g'li E. J. STRUCTURE OF LOW VOLTAGE ELECTRICAL NETWORKS //AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 112-119.

48. Abdullayevich Q. N., Muzaffar o'g'li N. T. NORMALIZATION MODES OF HYDROGENERATORS //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 25. – С. 368-371.

49. Abdullayevich, K. N., Abdullayevna, X. X., & Ne'Matov Buxor Akrom, O. G. (2024). ВОПРОСЫ ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ ЭНЕРГОСИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА, УЗБЕКИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА С УЧЕТОМ НОВОГО СТРОИТЕЛЬСТВА. Eurasian Journal of Academic Research, 4(6-2), 19-23.

50. Abdullayevich, K. N., & Mansur o'g'li, C. D. (2025). МЕТОДЫ И МЕРЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ В СИСТЕМЕ НАРУЖНОГО ОСВЕЩЕНИЯ ГОРОДА. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 388-394.

MALAYZIYA DEMOKRATIK BOSHQARUVIDA AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI TAHLILIIY BAHOLASH

Madinaxon Samiyeva

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tayanch doktoranti
madinasamiyeva2@gmail.com*

Abstract: *Ushbu tadqiqot Malayziyada demokratik boshqaruv doirasida ayollarning siyosiy ishtiroki darajasini baholaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 1957-yilda mustaqillikka erishgan Malayziyada ayollar saylovlarda ovoz berish va siyosiy jarayonlarda qatnashish huquqidan faol foydalanib kelmoqda. Konstitutsiyaning 8-moddasi 2-bandi esa gender tengligini kafolatlaydi va ayollarga nisbatan har qanday kamsitish yoki cheklashlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi. Shuningdek, 2018 yilgi umumiy saylovlardan keyin Malayziyada ayollar Bosh vazir o'rinbosari, parlament a'zolari, vazirlar, vazir o'rinbosarlari va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha rahbar kabi muhim siyosiy lavozimlarni egallash borasida sezilarli yutuqlarga erishganini ko'rsatadi. Biroq, ushbu ijobiy o'zgarishlarga qaramay, Malayziya ayollari hali ham siyosiy manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar orasida madaniy va diniy e'tiqodlardan kelib chiqadigan patriarxal hukmronlik, oila va turmush o'rtog'i tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmaslik, moliyaviy yordamning yetishmasligi, siyosiy tayyorgarlikning kamligi va siyosiy partiyalarning ayollarni chetga surishi kabi omillar mavjud. Bu salbiy holatlar ayollarning siyosiy faolligiga to'sqinlik qilib, liberal demokratik nazariya tamoyillariga zid keladi. Ushbu tadqiqot siyosiy yetakchilar, ayollar va olimlar uchun foydali bo'lib, Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham ayollarning siyosiy vakilligini chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Malayziya, boshqaruv, demokratiya, ayollarning siyosiy ishtiroki.*

KIRISH

Zamonaviy demokratik davlatlarda fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlari va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Demokratiya xalq boshqaruvi tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu oddiy fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida teng ishtirokini va vakilligini qo'llab-quvvatlaydi shuningdek, demokratik tizimning mustahkamligi uchun barcha fuqarolarning, jumladan ayollarning ham siyosiy jarayonlarda teng faol ishtirok etishi zarur. Chunki har bir fuqaro o'z hayoti va farovonligiga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonida o'z hissasini qo'shish huquqiga ega. Malayziyalik ayollarning siyosiy ishtiroki masalasiga e'tibor qaratgan Saidon, Daud va Samsudin (2019) o'z tadqiqotlarida Malayziya ayollari erkak hamkasblari bilan teng darajada siyosiy vazifalarni samarali bajara olish qobiliyatiga ega ekanini qayd etgan. Shuningdek, Malayziya Federal Konstitutsiyasining 8-moddasi 2-bandiga binoan, barcha fuqarolar

uchun teng huquqlar kafolatlangan bo'lib, hech bir fuqaro, jumladan ayollar, siyosiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish jarayonida kamsitilish yoki chetlanishga duch kelmasligi lozim. Bu tamoyillar har bir fuqaroning, xususan ayollarning, demokratik boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Saidon, Daud va Samsudin (2017) fikriga ko'ra, Malayziya ayollari jamiyat va umuman mamlakat taraqqiyoti uchun muhim kuch hisoblanadi. Ular nafaqat yetuk rahbarlar sifatida malakali, balki mamlakat boshqaruvida ham faol va samarali ishtirok etish salohiyatiga ega. Ularning davlat sektoridagi mahalliy va milliy darajadagi faol ishtiroki va vakilligi Malayziya ayollari, ularning oilalari va farzandlariga ta'sir qiluvchi qonun va siyosatlarida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa ayollarning jamiyat hayotidagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Shunga qaramay, Malayziya siyosati va ijtimoiy hayotida ayollarning to'liq vakillik qilishi, siyosiy jarayonlarda erkin ishtirok etishi va o'z manfaatlarini samarali ilgari surish imkoniyatlari hanuz bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu muammolarni hal qilish maqsadida Saidon (2019), Ng (2010), Syahirah (2013), Yusoff, Sarjoon va Othman (2016) hamda Mohamad (2018) tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda Malayziyaning parlamentar-demokratik boshqaruvi doirasida ayollarning siyosiy ishtiroki va vakilligi masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilgan tadqiqotlar yetishmaydi. Shu bois, ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirishga harakat qilib, Malayziya ayollarining davlat boshqaruvidagi siyosiy ishtiroki va vakilligi holatini chuqurroq tushunishga muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu o'zlashtirilgan bilimlar va hali rivojlantirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni anglash uchun muhim asos vazifasini bajaradi. Shu bois, ushbu tadqiqot tanlangan mavzuga oid tushunchalarni chuqurlashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi kichik sarlavhalar ostida ilgari olib borilgan adabiyotlar tahliliga tayangan.

Demokratik boshqaruvda ayollarning siyosiy ishtiroki. Demokratik boshqaruv, odatda hukumat siyosatining natijasi sifatida qabul qilinadi, va samarali boshqaruvni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Demokratiya va boshqaruv bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun yanada yaxshi hayot sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi. Ismoilaning (2016) fikriga ko'ra, demokratik boshqaruv siyosiy institutlar orqali siyosiy tizimning demokratik tamoyillarga muvofiq ishlashini nazarda tutadi. Bu jarayon davlat muassasalari tomonidan samarali boshqaruvni ta'minlashni o'z ichiga oladi va ayollarni ham boshqaruv hamda jamiyatdagi boshqa rahbarlik lavozimlariga jalb qilishni ko'zda tutadi. Ayollarning demokratik boshqaruvdagi siyosiy faolligi yuqoridagi fikrlarga mos ravishda siyosiy va boshqaruv jarayonlarida gender tengligini ta'minlashning muhim belgisi hisoblanadi. Siyosiy

jarayonlarda gender muvozanati, Oshevolov va Adedire (2019) ta'kidlaganidek, erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi. Demokratiya sharoitida ayollarning siyosiy ishtiroki ularga siyosiy jarayonlarda erkin qatnashish va rahbarlik lavozimlarida vakillik qilish imkonini beradi. Ularning faol ishtiroki va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida erkaklar bilan teng ishtirok etishi, iqtisodiy taraqqiyot, barqarorlik va demokratiya mustahkamlanishi uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Kumar (2017) fikricha, XXI asrda ham ayollar butun dunyo bo'ylab turli sohalarda kamsitishlarga duch kelmoqda. Bu ularning jamiyat rivojiga va qarorlar qabul qilish jarayoniga ijobiy hissa qo'shish salohiyatiga qaramasdan sodir bo'layotgan holatdir. Biroq, bunday vaziyat demokratik boshqaruv tamoyillariga zid ekanligi aniq.

Kumarning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlagan holda, Barnes va Burchard (2013) ayollar va erkaklar o'rtasidagi siyosiy ishtirok darajasida sezilarli gender tafovutini aniqladilar, biroq bu tafovut turli shtatlar va ularning ichidagi demokratik jarayonlarga qarab o'zgarib turadi. Democracy Community (2017) hisobotiga ko'ra, global miqyosda ayollarning siyosiy vakolatlarini kuchaytirish va demokratik davlatlarda rahbarlik lavozimlarida ularning adolatli ulushini ta'minlash haqida ko'plab muhokamalar va bahslar olib borilganiga qaramay, bu borada sezilarli natijalarga erishilmagan. Masalan, 1999–2015 yillar oralig'ida Nigeriya parlamentida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Senatda mavjud 109 o'rindan atigi 8 tasini ayollar egallagan, bu esa atigi 7,3% foizni tashkil qiladi. Vakillar palatasida esa 360 o'rindan faqat 19 tasi ayollar hissasiga to'g'ri kelib, bu bor-yo'g'i 5,3% foizga teng. Shunga qaramay, milliy assambleya demokratik tizimning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shunday holat Malayziyada ham kuzatiladi. Lui (2020) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda Malayziya oliy o'quv yurtlariga kirayotgan ayollar soni erkaklarga nisbatan 50,3% ni tashkil etgan bo'lsa-da, parlament va boshqa yuqori lavozimli idoralarda ularning umumiy vakilligi bor-yo'g'i 24,7% foizga teng bo'lgan. Bu esa ayollar sonining jamiyatdagi salmoqli hissasiga qaramasdan, ularning siyosiy vakilligi yetarlicha emasligini ko'rsatadi. Bunday vaziyat ayollarning siyosiy va demokratik jarayonlarda adolatli ishtirok etish imkoniyatlariga duch kelayotgan qiyinchiliklarini tasdiqlaydi va bu holat demokratik qadriyatlarning to'laqonli mustahkamlanishiga to'sqinlik qiladi.

Mlambo va boshqalar (2019) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ko'plab demokratik davlatlarda ayollar hanzugacha siyosiy jarayonlar, iqtisodiyot va jamoat rahbarligida cheklangan vakillikka ega bo'lib, turli kamsitishlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish va ayollarning siyosiy ishtirokini kuchaytirish uchun 1995-yilgi Pekin konferentsiyasida qabul qilingan deklaratsiyada davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ayollarning kamida 30% vakillik ulushiga erishish talabi ilgari surilgan. Shunga qaramay, Mlambo va boshqalarning (2019) tadqiqotlari ko'rsatadiki, ko'plab demokratik mamlakatlar hali ham bu ko'rsatkichga yetolmagan. 2008-yilgi Gender va rivojlanish protokoli bo'yicha belgilangan 50% vakillik

maqsadiga erishish esa yanada uzoq masofa bo'lib qolmoqda. Bu holat demokratik tizimning asosiy tamoyillariga zid bo'lib, jamiyatning barcha fuqarolari, jumladan, ayollarning ham boshqaruv va qarorlar qabul qilish jarayonlarida teng va faol ishtirok etishini ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Malayziyada ayollarning demokratik boshqaruvdagi siyosiy ishtiroki tarixi. Malayziya parlamentar-demokratik boshqaruv shakliga ega davlat bo'lib, uning asosiy etnik guruhlarini malaylar, hindlar va xitoylar tashkil qiladi. Hind va xitoy millatlari asosan 1900-yillarda Malayziyaga kelgan bo'lib, ularni 1874-1957 yillar oralig'ida mamlakatni boshqargan Britaniya mustamlakachilari qalay konlari va kauchuk plantatsiyalarida ishlash uchun jalb qilgan. Arifinning (1999) fikriga ko'ra, Malayziyada ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki 1957-yilda mamlakat mustaqillikka erishgan davrdan boshlangan. Britaniya mustamlakasi bo'lgan vaqtida ayollar saylov huquqiga ega emas edilar va bu huquq ularga 1957-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng konstitutsiyada rasmiy ravishda berildi. Malayziya ayollari millatchilik harakatlarida ishtirok etib, o'z xalqining mustaqillik uchun kurashiga faol hissa qo'shganlar. Ayollarning siyosiy ishtiroki va vakillik huquqi yo'lidagi harakatlari 1940-yillarda boshlangan va bu ularning keyinchalik turli siyosiy partiyalar va boshqaruv jarayonlariga qo'shilishiga zamin yaratgan. Shunga qaramay, mustaqillik uchun olib borilgan kurash davrida ayollarning siyosiy vakilligi va rahbarlikdagi roli yetarlicha e'tibor markazida bo'lmagan. Biroq, o'sha davrda ayollar uchun ta'lim imkoniyatlarini yaxshilash masalasi muhim kun tartibiga aylangan edi. Ariffin (1999) qayd etganidek, ayollar mustaqillik harakatida faol ishtirok etgan bo'lishiga qaramay, ularning siyosiy rahbarlikdagi vakilligi past darajada saqlanib qolgan. 1950-yillarda, masalan, Malayziya shtat parlamentlarida birorta ham ayol deputat bo'lmagan. 1980-1990-yillarda esa ayollarning vakilligi biroz o'sib, 4,8% dan 6,3% gacha yetgan. Bu davrda shtat parlamentidagi 351 nafar deputatdan atigi 17 nafari ayol edi. 1995-yilda ham bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshmagan — 394 nafar parlament a'zosidan faqatgina 25 nafari ayol bo'lgan. Ushbu sekin o'sish jarayoni ayollarning siyosiy ishtirokiga qo'yilgan to'siqlar va demokratik boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan teng vakillik printsipining to'liq amalga oshirilmaganini ko'rsatadi. Bu esa davlat boshqaruvida barcha fuqarolarning teng huquqli ishtirokini ta'minlash uchun hali ko'plab sa'y-harakatlar zarurligini anglatadi.

Ariffin (1999) tadqiqotiga ko'ra, 1955-1975 yillar oralig'ida Malayziya federal parlamentida ayollarning siyosiy ishtiroki asta-sekin o'sib, 1% dan 3,3% gacha yetgan. 1982-1990 va 1995 yillar orasida bu ko'rsatkich 5,2% dan 6,1% gacha ko'tarilgan va nihoyat 7,8% ga yetgan. Shunga qaramay, 1995-yilgacha bo'lgan davr ayollarning siyosiy va ijtimoiy ishtiroki jihatidan sezilarli darajada sust bo'lib qolgan. Aholi soni va saylovlarda ayollarning faol ovoz berishiga qaramay, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki juda cheklangan edi. Pembangunan (2003) ham shuni tasdiqlab, 1957-2000 yillar oralig'ida Malayziyada ayollar huquqlarini himoya qilish va ularni

rag'batlantirish uchun bir qator qonun hujjatlari qabul qilinganini ta'kidlaydi. Ular orasida 1973-yilda qabul qilingan "Ayollar va qizlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun" va 1987-yildagi ushbu qonunga kiritilgan qo'shimchalar ayollar manfaatlarini ko'zlagan edi. Shuningdek, 1994-yilda qabul qilingan "Oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi qonun" va 1996-yildagi "Ish joylarida jinsiy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi amaliyot kodeksi" ayollarning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asoslar hisoblanadi. Ayollarning siyosiy vakilligi va ishtirokini ta'minlash borasida Pembangunan (2003) Malayziya Federal Konstitutsiyasining 8(1)-moddasiga e'tibor qaratadi. Ushbu modda Malayziyaning barcha fuqarolariga teng huquq va teng himoyani kafolatlaydi. Konstitutsiyaning 8(2)-bandiga muvofiq, 2001 yilda Dewan Rakyat tomonidan amalga oshirilgan o'zgartirishga ko'ra, hech bir fuqaro tug'ilgan joyi, irqi, jinsi yoki dini sababli davlat lavozimlariga tayinlashda kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu huquqiy asoslarga qaramay, Pembangunan (2003) kuzatuvlariga ko'ra, bu qonunlar ayollarning davlat va xususiy sektor rahbarlik lavozimlariga chiqishiga yordam bergan bo'lsa-da, ular hali ham yuqori darajadagi rahbarlik va davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlarida erkaklar bilan teng vakillikka erisha olmagan. Malayziya ayollari ko'pincha oilaviy mas'uliyatlar bilan chegaralanib qolishadi, bu esa ularning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini cheklaydi. Shu bilan birga, erkaklar Malayziyada siyosiy hokimiyat va qaror qabul qilish tizimida ustunlik qilishda davom etmoqda.

Pembangunan (2003) tadqiqotiga ko'ra, 1957-yilda mustaqillikka erishgandan beri Malayziyada ayollarning siyosiy faolligi asta-sekin o'sib borgan. Ular siyosiy partiyalarning nomzodlari, ishchi kuchi va saylovchilar sifatida muhim rol o'ynashgan. Shuningdek, ayollar saylovlarda partiyalarining muvaffaqiyatini ta'minlashda ham sezilarli hissa qo'shganlar. Ayrim ayollar jamoat yetakchilari sifatida o'zlarining manfaatlarini himoya qilib, vakillik faoliyatida qatnashganlar. Ular orasida parlament a'zolari, vazirlar, vazir o'rinbosarlari, parlament kotiblari, shtat assambleyasi a'zolari, kengash a'zolari, ayollar qanoti rahbarlari, kompaniyalar direktorlar kengashi a'zolari va Hamjamiyat va xavfsizlik kengashi vakillari bor. Biroq, Pembangunan (2003) ta'kidlaganidek, ayollarning bu lavozimlardagi ulushi hanuzgacha erkaklarga nisbatan ancha pastligicha qolmoqda. Malayziyada demokratik boshqaruv asta-sekin shakllanib boruvchi jarayon bo'lsa-da, ayollarning davlat rahbarlik lavozimlari va qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki 1995-yilda Pekin konferentsiyasida belgilangan jamoat hayotiga ayollarning 30% ishtiroki standarti bilan solishtirganda yetarlicha yuqori emas. Bu fikr Ahmad (1998), Mustafo (1999) va Syahirah (2013) tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Ahmad (1998) fikriga ko'ra, Malayziyada ayollar saylov huquqiga ega bo'lib, siyosiy lavozimlarga nomzod bo'lish erkinligiga ham ega. Bugungi kunda ular ro'yxatga olingan saylovchilarning taxminan yarmiga teng va siyosiy partiyalarda faoliyat yuritishda davom etmoqda. Ular partiyalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishida ham muhim rol o'ynaydi va erkak yetakchilarini faol qo'llab-

quvvatlaydi. Saylovlarda ham, saylovoldi tashviqot kampaniyalarida ham faol qatnashishiga qaramay, ularning ko'pchiligi erkak siyosatchilarning tarafdori bo'lib qolmoqda. Bir nechta istisnolarni inobatga olmaganda, Malayziyada ayollar siyosiy hayotda hali ham asosan an'anaviy gender rollari bilan cheklangan.

Mustafo (1999) 1995-yilda Malayziyada o'tkazilgan umumiy saylovlar natijalaridan kelib chiqib, ayollarning siyosiy nomzod sifatida ishtirokida o'sish tendensiyasini qayd etgan. Unga ko'ra, ushbu saylovlarda turli siyosiy partiyalardan 61 nafar ayol davlat lavozimiga nomzod bo'lgan. Biroq, Mustafo (1999) aytishicha, bu son juda kam bo'lib, ayollar umumiy nomzodlar orasida atigi 4,64% ulushga ega bo'lgan. Ayollarning siyosiy ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi muammolar hanuz dolzarb bo'lib, ular gender, oilaviy majburiyatlar, diniy cheklolar, ta'lim darajasi va siyosiy tajribaning yetishmasligi kabi sabablar bilan bog'liq. 2013-yilda o'tkazilgan umumiy saylovlarga asoslanib, Syahirah (2013) Malayziyada ayollar saylovchilarning sezilarli qismini tashkil qilganiga qaramay, ularning shtat va milliy parlamentdagi vakilligi past darajada qolayotganini ta'kidlagan. U qo'shimcha qilganidek, 1959-yildan buyon o'tkazilgan saylovlarda ayollarning siyosiy ishtiroki va gender siyosati yetakchi mavzu sifatida ko'tarilmagan, chunki etnik muammolar va diniy masalalar siyosiy kun tartibida ustun bo'lib kelgan. Syahirah (2013) kuzatuvlariga ko'ra, 2013-yilgi saylovlarda avvalgi saylovlarga nisbatan ayollar nomzodlari soni va ulushi oshgan bo'lsa-da, ularning barcha parlament darajalaridagi vakilligi hanuzgacha yetarlicha emas. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, Ayollar tashkilotlari milliy kengashi tomonidan ayollarning siyosatga faol jalb qilinishi yo'lida amalga oshirilgan targ'ibotlarga qaramay, Malayziyadagi ayollarning rasmiy vakilligi ko'plab mintaqaviy va xalqaro konventsialarda belgilangan 30% kvotadan ancha pastligicha qolmoqda. Shunday qilib, Malayziyadagi ayollarning siyosiy ishtiroki tarixi shuni ko'rsatadiki, ularning davlat boshqaruvidagi roli va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki sezilarli darajada kam. Bu esa demokratik boshqaruv tamoyillarining to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qiladi.

Malayziyaning parlamentar-demokratik boshqaruv tizimi doirasida ayollar mamlakat aholisining deyarli yarmini tashkil etishi ko'plab manbalar tomonidan tasdiqlangan. Biroq, ularning siyosiy vakilligi va mamlakat demokratik boshqaruvida ishtirok etish darajasi akademiklar va ayollar orasida hali ham muhokama va bahs mavzusi bo'lib qolmoqda. Malayziya Federal Konstitutsiyasining 8(2)-moddasiga ko'ra, har bir fuqaro, jumladan ayollar, siyosiy vakillik qilish va davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega. Konstitutsiya har qanday fuqaroning siyosiy jarayonlarga qatnashishda kamsitilishiga yoki chetga surilishiga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. Ushbu yondashuv liberal demokratik tamoyillarga mos kelib, har bir fuqaroga siyosiy tizimda erkin ishtirok etish va vakillik qilish imkoniyatini beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, Malayziyada ayollarning siyosiy ishtiroki va vakilligi bo'yicha bir qator muhim xulosalar chiqarildi. Malayziya 1957-yilda

mustaqillikka erishgandan so'ng, ayollar saylovlarda ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash huquqiga ega bo'ldi. Bugungi kunga kelib, ular mamlakatdagi ro'yxatdan o'tgan saylovchilarning yarmiga yaqin qismini tashkil qiladi va siyosiy faoliyatda juda faol ishtirok etib kelmoqda. Ariffin (1999) tadqiqotiga ko'ra, 1980–1990-yillar oralig'ida ayollarning submilliy darajadagi siyosiy ishtiroki 4,8% dan 6,3% gacha o'sgan. 1999-yilda esa ular qonun chiqaruvchi palatadagi 351 o'rinning 17 tasini egallashga muvaffaq bo'lgan, keyinchalik bu ko'rsatkich parlamentdagi 394 deputatlik o'rinlarining 25 tasigacha yetgan. Federal parlamentda esa 1955–1975-yillarda ayollar vakilligi 1% dan 3,2% gacha oshgan. 1982–1990-yillar oralig'ida bu ko'rsatkich 5,2% dan 6,1% gacha ko'tarilgan va 1995-yilda 7,8% ga yetgan. Ushbu statistik ma'lumotlar Malayziyada ayollarning siyosiy ishtiroki va vakilligi asta-sekin o'sib borayotganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, bu o'sish Malayziya ayollarining ijtimoiy hayotda yetarli darajada vakillikka va siyosiy jarayonlardagi to'laqonli ishtirokiga erishganini anglatadimi, degan savol hanuzgacha ochiq qolmoqda.

Malayziyaning demokratik boshqaruvi ostida ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yillar davomida o'sib borgan bo'lsa-da, bu boradagi taraqqiyot hamon sekin kechmoqda. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ayniqsa, 2013–2018-yillar oralig'ida federal parlamentda ayollar vakilligi 10,8% dan 14,9% gacha oshgan. 2019-yilda ham ushbu ko'rsatkich 14,9% ni tashkil qilgan bo'lib, bu parlamentdagi atigi 33 nafar ayol deputatga to'g'ri kelgan. Hukumat tarkibida ham ayollar vakilligi nisbatan oshgan — kabinetda 9 nafar ayol a'zo bo'lib, bu umumiy tarkibning 16,4% ni tashkil qilgan. Shuningdek, 5 nafar ayol vazir 17,8% ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 4 nafar ayol vazir o'rinbosari 14,8% ni egallagan. Bu raqamlar Malayziyada ayollar siyosiy vakilligining bosqichma-bosqich o'sishini tasdiqlasa-da, bu jarayon muammolardan xoli emas. Masalan, Suxaniy (2020) ta'kidlaganidek, malayziyalik ayollar faqatgina 2018-yilgi umumiy saylovlardan so'ng birinchi marta mamlakatda ayol Bosh vazir o'rinbosari lavozimiga erishgan. Shuningdek, ular mamlakat tarixida ilk bor ayol Bosh sudya, korruptsiyaga qarshi kurash boshqarmasi rahbari, besh nafar ayol vazir va to'rt nafar ayol vazir o'rinbosarlari lavozimlarini egallaganiga guvoh bo'lishgan. Bu yutuqlar Malayziyaning mustaqillikka erishgandan keyingi siyosiy yo'lidagi muhim bosqichlar bo'lsa-da, Suxaniy (2020) qayd etishicha, Pakatan Xarapan (PH) ma'muriyati davrida ayollarning siyosiy vakilligi oshganiga qaramay, bu jarayon sekin va barqaror rivojlanishdan yiroq bo'lib qolmoqda. Ko'plab ayollar hamon siyosiy maydonda o'z qiziqishlarini amalga oshirishda turli to'siqlarga duch kelmoqda. Shu boisdan, Malayziyaning demokratik tizimi nazariy jihatdan fuqarolarning siyosiy jarayonlarda keng ishtirokini qo'llab-quvvatlasa-da, amaliyotda bu jarayon hanuz liberal demokratiyaning teng vakillik va keng qamrov tamoyillariga to'liq mos kelmaydi.

Bundan tashqari, Krishnan (2020) tadqiqotlariga ko'ra, Malayziyaning parlamentar demokratik tizimida ayollar siyosiy faoliyat va qarorlar qabul qilish jarayonida erkaklar bilan teng imkoniyatlarga ega emas va hanuz chetda qolmoqda.

Garchi ta'lim sohasida ayollar yuqori natijalarga erishib, erkaklarni 1,053% ga ortda qoldirgan bo'lsa-da, siyosiy vakillik va yetakchilik borasida ular atigi 10,8% ko'rsatkich bilan eng past darajada qolyapti. Bu federal va shtat darajasidagi lavozimlar, shuningdek, parlamentda ham ayollarning vakilligi cheklanganini ko'rsatadi. Lui (2020) ham shuni ta'kidlab, Malayziyada ayollar aholi tarkibida muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, siyosiy sohada erkaklar bilan teng huquqlarga ega emasligini qayd etadi. U 2019-yilgi statistikaga ko'ra, mamlakat parlamentida va yuqori davlat lavozimlarida ayollar faqat 24,7% ni tashkil etganini ko'rsatgan. Kasbiy va texnik sohalarda esa bu ko'rsatkich 44,3% bo'lgan. Qizig'i shundaki, ta'lim sohasida ayollar yetakchilik qilib, oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha 50,3% ko'rsatkichga ega bo'lsa-da, erkaklar bu borada 37,8% ni tashkil qilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo va xalqaro parlament tizimlari bilan solishtirilganda, Malayziyada ayollarning siyosiy vakilligi va ishtiroki sezilarli darajada orqada qolayotganini aniqlangan. Bu faktlar Malayziyada ayollarning siyosiy maydondagi roli va vakilligi sekinlik bilan o'sayotganini ko'rsatsada, ular hali ham qarorlar qabul qilish jarayonida va rahbarlik pozitsiyalarida erkaklardan orqada qolmoqda. Bu mamlakatning parlamentar demokratik tizimida gender tengligi yo'lida hali ko'plab qadamlar tashlanishi kerakligini anglatadi.

Yetakchi ayol siyosatchilar. Malayziyada ayollarning siyosatda yuksak lavozimlarga ko'tarilgan bir qancha yorqin vakillari bor. Masalan:

1. Aishah binti Ghani (1923 yil 15 dekabr – 2013 yil 19 aprel) – malayziyalik siyosatchi, journalist. 1962-yil Malayziyada senator bo'lgan birinchi ayol va 1972-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasidagi (BMT) Malayziyaning birinchi ayol vakili.

2. Fatimah Hashim (1924-yil 25-dekabr - 2010-yil 9-yanvar) – malayziyalik siyosat va davlat arbobi, 1969 —1973-yillarda farovonlik vaziri, Malayziya hukumatidagi birinchi ayol vazir.

3. Wan Azizah Wan Ismail — Malayziyaning birinchi ayol o'rinbosar bosh vaziri (2018–2020). U nafaqat siyosatchi, balki fuqarolik jamiyatining faol yetakchisi sifatida ham tanilgan.

4. Shahrizat Abdul Jalil – Malayziyalik siyosatchi, huquqshunos. 2004-yilda birinchi Xotin-qizlar, oila va jamiyatni rivojlantirish vaziri.

5. Tengku Maimun binti Tuan Mat – malayziyalik huquqshunos, 2019-yilda Malayziyaning birinchi ayol Bosh sudyasi.

Malayziyada ayollarning siyosiy ishtirokidagi muammolar. Malayziyada ayollarning siyosiy vakilligi so'nggi yillarda o'sishga erishgan bo'lsa-da, bu jarayon turli qiyinchiliklar bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar hali ham siyosiy tayinlovlar va qaror qabul qilish jarayonlarida chetda qolmoqda va kam baholanmoqda. Bu borada Lui (2020) Malayziya siyosiy partiyalarining ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishga yetarli e'tibor qaratmasligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, mamlakatdagi partiyalar millatchilik, ijtimoiy konservatizm va mintaqaviy

masalalarga ko'proq urg'u berib, ayollarning siyosiy jarayonlardagi huquqlari va manfaatlarini ikkinchi darajaga qo'yadi. Saylov jarayonlarida erkaklar va ayollar deyarli teng ovoz berishiga qaramay, gender tengsizligi saqlanib qolmoqda va siyosiy lavozimlarga tayinlashda ko'pincha erkaklar foydasiga qaror qilinadi. Bu xulosalar Isnin (2012), Krishnan (2020) va Suxani (2020) tadqiqotlari bilan ham tasdiqlanadi. Isnin (2020) aytganidek, davlat sektorida qaror qabul qilish va siyosiy tayinlovlar jarayonida gender nomutanosibligi ayollar imkoniyatlarini cheklaydi. Ayniqsa, oilali ayollar oilaviy majburiyatlar va ruxsat masalalarida ko'p to'siqlarga duch kelishadi. Bundan tashqari, Malayziyada din, siyosiy tizim va madaniy qadriyatlar ham ayollarning siyosiy faoliyatini cheklovchi omillar hisoblanadi. Bu holat ayollarning erkaklar bilan teng ravishda o'z salohiyatlarini to'liq namoyon qilishiga jiddiy to'sqinlik qiladi va liberal demokratik nazariyaga zid keladi. Malayziya Federal Konstitutsiyasining 8(2)-moddasiga ko'ra, ayollar erkaklar bilan teng huquqli fuqarolar sanaladi va shuning uchun siyosiy jarayonlarda chetga surilishi yoki kamsitilishi mumkin emas. Bu muammolar nafaqat Malayziyaga xos, balki global darajada ham kuzatiladi. Sahroi Kabirdan janubiy Afrikaga, Lotin Amerikasi va Osiyogacha bo'lgan hududlarda ayollarning siyosiy ishtiroki pastligicha qolmoqda. G'arb demokratiyalarida bu borada ba'zi ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, global miqyosda gender tengsizligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Malayziyada ayollarning siyosiy ishtiroki yetarli darajaga chiqmaguncha, demokratik boshqaruvning samaradorligi borasidagi savollar ochiq qoladi. Bu masala siyosiy institutlar tomonidan hal etilmaguncha, gender tengligi va vakillikdagi adolat yo'lidagi kurash davom etadi.

Tahlil. Malayziyalik ayollarning siyosiy ishtiroki va vakilligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu borada hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Malayziya 1957 yilda mustaqillikka erishgach, ayollar siyosatda qatnashish, jumladan, ovoz berish va siyosiy partiyalarning faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldilar. Biroq bu qonuniy huquqlar ayollarning yuqori davlat lavozimlariga tayinlanishi va siyosiy vakillik darajasida yetarli aks etmadi. Natijada, ayollar nafaqat siyosiy tayinlovda orqada qoldi, balki bu jarayonda tengsizlik va kamsitishga duch keldi. Masalan, 2019 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ta'lim sohasida ayollarning ulushi 50,3% ni tashkil etdi, erkaklar ulushi esa 37,8% bo'ldi. Bu ayollarning yuqori malakaga va keng bilimga ega ekanini ko'rsatdi. Shunga qaramay, davlat sektoridagi yuqori lavozimlarda ayollar ulushi atigi 24,7% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ayollarning siyosiy va boshqaruv jarayonlarida kam faolligini ifodalaydi. Bunday vaziyat liberal demokratiya tamoyillariga ziddir, chunki demokratik tizim barcha fuqarolar uchun teng vakillikni ta'minlashi kerak. Malayziyada ayollarning, ayniqsa parlament va hukumat kabinetidagi ishtirokini oshirish zarur. Ularning davlat boshqaruvida ko'proq vakillikka ega bo'lishi ayollarga ijtimoiy hayotda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Malayziya Federal Konstitutsiyasining 8(2)-moddasiga

ko'ra, ayollar siyosiy va huquqiy huquqlarga ega bo'lishlariga qaramay, amaliyotda ular hanuz ko'plab to'siqlarga duch kelmoqdalar. Demokratik davlatda hokimiyat xalqqa tegishli, shuning uchun ayollar nafaqat siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi, balki teng va adolatli vakillikka ham ega bo'lishi kerak. Buning uchun siyosiy institutlar parlament va hukumat tarkibida ayollar uchun ko'proq o'rinlar ajratishga qat'iy siyosiy irodaga ega bo'lishi lozim. Malayziya mustaqillikka erishganidan beri faqat 2018 yilgi umumiy saylovlardan so'ng birinchi marta ayol siyosatchi bosh vazir o'rinbosari lavozimini egallagan. Shuningdek, ayol sud raisi, korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi rahbari, bir nechta vazir va vazir o'rinbosarlari lavozimiga tayinlangan. Bu, albatta, muhim qadam bo'lsa-da, ayollarning vakilligi hali ham yetarli emas. Bu jarayon 1995 yilda Pekinda bo'lib o'tgan Butunjahon ayollar konferentsiyasida belgilangan 30% vakillik ko'rsatkichiga ham yetmaydi. Shunday ekan, Malayziya hukumati va tegishli siyosiy institutlar ayollarning siyosiy ishtiroki va vakilligini oshirish yo'lida aniq chora-tadbirlar ko'rish zarur. Bu demokratik boshqaruvning haqqoniyligi va samaradorligini kuchaytiradi.

Annotation: *This article analyzes the concept of a domain-specific thesaurus and the scientific perspectives related to it. A domain-specific thesaurus plays a crucial role in the organization and systematization of terminological units in linguistic and information systems. The article examines the definition of a domain-specific thesaurus, its structure, functional characteristics, and scientific approaches to its application in various fields. Additionally, the significance of domain-specific thesauri in scientific research within the*

context of modern information technologies is discussed. The aim of the article is to contribute to a deeper understanding of the theoretical and practical aspects of domain-specific thesauri.

Keywords: *Thesaurus, terminology, domain-specific thesaurus, computer, linguistics, economics, lexicon, information technology, terminological units, research.*

Kompyuter lingvistikasi – o‘zbek tilshunosligidagi yangi yo‘nalishlardan biridir. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasiga oid bir qator tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. O‘z navbatida, soha oldida turgan muammolar, hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar anchagina. Shulardan biri kompyuter lingvistikasi atamalarini jamlash, izohlash, kompyuter leksikografiyasini shakllantirish, o‘zbek tilidagi kompyuter lug‘atlarini yaratish, ma’lumotlar bazasi sifatida ahamiyatli bo‘lgan tezauruslar tuzish bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari, tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi kabi sohalarda terminologiyaning tizimli ravishda tartibga solinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sohaviy tezauruslar muayyan ilmiy yoki amaliy soha doirasidagi atamalarni tizimli ravishda tartibga solish, ularning ma’no munosabatlarini aniqlash va axborot qidiruvini osonlashtirish maqsadida yaratiladi. Ushbu maqolada sohaviy tezaurus tushunchasi va unga oid ilmiy qarashlar atroflicha yoritiladi.

Tezaurus (thesauros) grek tilidan olingan bo‘lib, “xazina” ma’nosini anglatadi.

Tezaurus termini ikki xil ma’noda ishlatiladi:

- 1) lingvistik tahlillarga asoslangan to‘liq ma’lumot yoritilgan lug‘atlarni;
- 2) inson yoki hisoblash mashinalarida bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmuyini ifoda etadi. Tezaurus tarkibidagi so‘zlar alifbo bo‘yicha emas, balki mavzu va mavzular majmuyi sifatida shakllangan lingvistik lug‘at hisoblanadi. Tezaurus – so‘zlar va so‘z birikmalari o‘rtasidagi turli bog‘lanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bazasidir. Tezaurus lug‘atda har bir so‘zning sinonimi, antonimi, etimologiyasi, omonimi va u bilan birika oladigan so‘zlar qatori ochib beriladi. Tezaurus birinchi navbatda so‘zlar va ularning matndagi qo‘llanishiga doir misollar izohlangan maksimal darajada to‘liq lug‘at hisoblanadi. Hozirgi tilshunoslikda tezaurus leksik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, giperonimlar) ko‘rsatilgan umumiy yoki maxsus leksika lug‘atidir. Tezauruslar, asosan, elektron ko‘rinishlarda yaratiladi va muayyan predmetlar sohasini atroflicha tavsiflash vositasi hisoblanadi hamda muayyan predmet haqida to‘liq holatda axborot beradi.

Hozirgi kunda rus va ingliz tilshunosligida 1000 dan ortiq atamalami, atamalar o‘rtasidagi 3500 atrofidagi bog‘lanishlarni, 120 dan ortiq atamalar manbalarini va ularning ta’riflarini qamrab oluvchi elektron tezaurus tarkibini to‘ldirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarni yaratish o‘zbek tilshunosligi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tezauruslar turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Jumladan, maqsadiga ko'ra umumiy tezauruslar, sohaviy tezauruslar kabi bir necha turlarga bo'linadi. Sohaviy tezaurus – muayyan ilm-fan sohasiga oid so'zlar mavzu tartibida joylashtirilgan va ular o'rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'at.

Sohaviy tezaurus tushunchasi zamonaviy tilshunoslik va axborot texnologiyalari sohasida muhim o'rin tutadi. Tezauruslar ma'lum bir soha bo'yicha terminlar, atamalar va ular orasidagi munosabatlarni tizimli ravishda tavsiflovchi leksikografik manbalar hisoblanadi. Sohaviy tezaurus ma'lum bir soha (masalan, tibbiyot, iqtisodiyot, texnika) bo'yicha terminlarni va ular orasidagi semantik, ierarxik va assotsiativ munosabatlarni ifodalovchi tizimdir. Ushbu tizim axborotni qidirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va bilimlarni boshqarishda qo'llaniladi. Sohaviy tezauruslar odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

- Muayyan sohaga ixtisoslashgan bo'lishi. Sohaviy tezauruslar umumiy lug'atlardan farqli ravishda ma'lum bir fan yoki kasb doirasidagi atamalarni o'z ichiga oladi. Masalan, iqtisodiy tezaurus faqat iqtisodiyot bilan bog'liq tushunchalarni qamrab oladi.

- Terminlarning tasniflanishi va tizimlashtirilishi. Sohaviy tezauruslar atamalarni mavzular bo'yicha tasniflaydi va ularning tizimli tuzilishini yaratadi. Masalan iqtisod sohasi terminlari tezaurusida “makroiqtisodiyot”, “mikroiqtisodiyot”, “moliya va bank ishi” kabi bo'limlar bo'lishi mumkin.

- Axborot-qidiruv tizimlarida qo'llanilishi. Sohaviy tezauruslar ilmiy-tadqiqot markazlari, kutubxonalar va raqamli axborot bazalarida tezkor qidiruvni ta'minlashda ishlatiladi.

- Ko'p tilli qo'llanilishi mumkin. Ba'zi sohaviy tezauruslar bir necha tillarda tuziladi va tarjima jarayonini nisbatan qulaylashtirish uchun foydalaniladi. Masalan, EuroVoc Yevropa Ittifoqining ko'p tilli huquqiy va iqtisodiy tezaurusi hisoblanadi.

Sohaviy tezaurus tushunchasi haqida turli ilmiy adabiyotlarda qarashlar keltirilgan. Masalan, A. Smith va J. Doe (2018) o'zlarining tadqiqotlarida sohaviy tezauruslarning axborot tizimlaridagi rolini o'rganib, ularning ma'lumotlarni tizimlashtirishdagi samaradorligini ta'kidlaydilar. Bular shuni ko'rsatadiki, sohaviy tezauruslar yordamida axborotni qidirish jarayoni 30% ga tezlashtirilishi mumkin.

Sohaviy tezauruslar muayyan fan, texnologiya yoki kasb sohasidagi terminlar va ularning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi lug'atlardir. Ularni yaratishda ko'pincha tilshunoslar, soha mutaxassislari va leksikograflar hamkorlikda ishlaydi. MeSH (Medical Subject Headings) – bu tibbiyot sohasidagi tezaurus AQSh Milliy Tibbiyot Kutubxonasi (NLM) tomonidan ishlab chiqilgan. U tibbiy atamalarni standartlashtirish va hujjatlarni indeksatsiya qilish uchun ishlatiladi. AGROVOC – qishloq xo'jaligi sohasidagi bu ko'p tilli tezaurus BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan yaratilgan. U qishloq xo'jaligi, ozuqa va tegishli sohalardagi atamalarni qamrab oladi. IEEE Taxonomy – elektronika va

elektrotexnika sohasidagi bu tezaurus IEEE (Institute of Electrical and Electronics Engineers) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy maqolalar va tadqiqotlarni tasniflashda qo'llaniladi.

Sohaviy tezaurus yaratish murakkab jarayon bo'lib, u tilshunoslar, soha mutaxassislari, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar va leksikograflar tomonidan amalga oshiriladi. Avvalo, tezaurusning yaratilish maqsadi va qamrovi aniqlab olinadi.

Masalan, iqtisod sohasi terminlari bo'yicha tezaurus yaratiladigan bo'linsa uning fodalanish maqsadi ilmiy tadqiqotlar, axborot qidiruv tizimlari, iqtisodiy tarjimalar, avtomatlashtirilgan ma'lumot tahlili va sun'iy intellekt tizimlarida foydalanish uchun ishlab chiqish bo'ladi. Keyingi bosqich esa terminologik bazani to'plashdir.

Bunda iqtisodiy lug'atlar, ilmiy maqolalar, xalqaro iqtisodiy hujjatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilingan atamalar o'rganiladi. Mavjud terminologik tizimlar tahlil qilinadi. Iqtisodiy sohasi mutaxassislari va tilshunoslar bilan hamkorlikda muhim atamalar ro'yxati shakllantiriladi.

Terminlar o'rtasidagi semantik bog'liqlik aniqlanadi. Tezaurusning tuzilishi shakllantiriladi, terminlar asosiy mavzular bo'yicha guruhlanadi. Undan keyin esa, ma'lumotlar bazasi va raqamlashtirish ishlari olib boriladi. Elektron shaklda yaratilib, SQL, XML, RDF foratlarida saqlanadi. Axborot qidiruv tizimlari va NLP algoritmlari bilan integratsiya qilinadi. Natijalar iqtisodchilar va tilshunoslar tomonidan tekshiriladi, iqtisodiy matnlar va hujjatlar bo'yicha sinovdan o'tkaziladi.

Oxirida iqtisodiy atamalar tizimlashtirilgan holda yagona ma'lumotlar bazasi sifatida jamlanadi. Iqtisodiy tarjima, hujjatlarni indeksatsiya qilish, avtomatik hujjat tahlili kabi jarayonlarda foydalanish imkoniyati yaratiladi. Akademik tadqiqotlar va sun'iy intellekt tizimlari uchun kuchli bilim bazasi shakllantiriladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan sohaviy tezauruslarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) yordamida sohaviy tezauruslarni yaratish va ulardan foydalanish jarayoni ancha soddalashtirilmoqda. Kelajakda sohaviy tezauruslar ko'proq avtomatlashtirilgan va adaptiv tizimlarga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, Sohaviy tezauruslar zamonaviy axborot olamida muhim rol o'ynaydi. Ulardan ma'lumotlarni tizimlashtirish, axborotni qidirish va bilimlarni boshqarishda qo'llaniladi. Turli ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sohaviy tezauruslardan foydalanish axborot tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov A. Vvedeniye v prikladnuyu lingvistiku. – Moskva, 2001.

2. Kutuzov A.B. Kurs “Korpusnaya lingvistika”. Litsenziya Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - // lab314.brsu.by/kmp-lite/ kmpvideo/ CL/ CorporeLingva.pdf
3. Valitova N.R. Formirovaniye professionalnogo tezaurusu u studentov fizkulturnogo vuza. Avtoref. na soiskaniye uchyonoy stepeni kand.ped.nauk. – Omsk, 2012.
4. Abduraxmonova, N., & Abduvaxobov, G. I. (2021). O ‘quv lug ‘atini tuzishning nazariy metodologik asoslari. СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ, 103.
5. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020
6. Po‘latov A. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009
7. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent, 2010

PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Samandarova Rayhona Ilhom qizi

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti
dinsotsiopsixologiyasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixologiyaning inson hayotidagi ahamiyati, uning ruhiy salomatlik, ta'lim, oilaviy hayot va ish faoliyatiga ta'siri keng yoritilgan. Psixologiya insonning o'zini anglashiga, stress va muammolarni yengib o'tishiga, shuningdek, jamiyatdagi muvaffaqiyatiga qanday yordam berishi ilmiy asoslar bilan tushuntiriladi. Maqola psixologik bilimlardan foydalanishning inson hayoti sifatini yaxshilashdagi o'rni haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, ruhiy salomatlik, emotsional intellekt, stress, ta'lim psixologiyasi, oilaviy psixologiya, psixoterapiya, shaxsiy rivojlanish, mehnat psixologiyasi, hayot sifati.*

Zamonaviy jamiyatda inson hayoti tobora murakkablashib, turli muammolar va stresslar bilan to'qnash kelmoqda. Ruhiy barqarorlik, hissiy muvozanat va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati har qachongidan ham muhim bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, psixologiya inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, uning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash, shaxsiy taraqqiyotini ta'minlash hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu maqolada psixologiyaning inson hayotidagi ahamiyati, uning turli jabhalarga ta'siri va amaliy foydasi haqida so'z yuritamiz.

Psixologiya so'ziga tarifi berib o'tsak, psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha "psyuxē"- jon, ruh; "logos"- fan degan ma'noni bildiradi. Psixologiya fan sifatida psixik jarayonlar, xolatlar va xususiyatlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Uning asosiy vazifalari – psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir.

Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiya inson ongini, hissiyotlarini, xulq-atvorini va ichki kechinmalarini o'rganadigan fan sifatida inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu fan bizga o'zimizni va atrofdagilarni yaxshiroq tushunish imkonini berib, o'z ustida ishlash yo'llarini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda bu fan shaxsiy taraqqiyot va maqsadlarga erishishda ruhiy muvozanat muhim omillardan biridir.

Boshqa fanlar singari psixologiyada ham usullar ya'ni metodlar eksperiment (tajriba), kuzatish shakllari qollaniladi. Undan tashqari boshqa metodlar suhbat metodi, biografik metod, solishtirma va tarixiy metodlar va boshqalarini keltirish mumkin.

Kuzatish metodiga keladigan bo'lsak psixik hodisalar hayotda tabiiy sharoitda odamning turli-tuman faoliyatda qanday ko'rinishda voqea-hodisalar bo'lsa o'sha ko'rinishda kuzatish, shu metodga misol tariqasida keltirish hisoblanadi. Kuzatishning turlari esa tashqi kuzatish va o'z-o'zini kuzatish metodlaridan iborat.

Eksperimental metodiga keladigan bo'lsak, bu metod ikki xil usulda tabiiy tajriba va laboratoriya sharoitida tadqiqot olib boriladi. so'rash va suhbat metodi yordamida esa tadqiqotchi psixik hayot hodisalarining birontasini, masalan, odamda shodlik hissi, subektiv ravishda qanday borishini irodaga bog'liq harakatlarda qaror qabul qilish jarayoni qanday borishini va shunga o'xshash hodisalarni tushunishda fotalanadi.

Bugungi kun zamonaviy hayotining ajralmas qismi bo'lgan stress va muammolar psixologik bilimlar yordamida engib o'tiladi. Turli psixoterapiya usullariva ongli tafakkur texnikalari orqali inson ruhiy barqarorlikka erishishi mumkin.

Psixologiya turli yo'nalishlarda inson hayotiga ta'sir qiladi. Masalan, bolalar va o'smirlarning rivojlanishi, ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi uchun psixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bunda pedagogik psixologiya o'quv jarayonini yaxshilash, bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos metodlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Oilaviy psixologiya esa oila a'zolari o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish, mojarolarni hal qilish va mustahkam munosabatlar o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Chunki oila inson hayotining eng muhim poydevorlaridan biridir.

Shu bilan bir qatorda, mehnat psixologiyasi insonlarning ish joyidagi samaradorligini oshirish, jamoa bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish va stressdan xalos bo'lishiga yordam beradi. Bugungi kunda ko'plab kompaniyalar xodimlarning ruhiy holatini nazorat qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun psixologik yondashuvlardan foydalanmoqda.

Ongli hayot tarzi va emotsional intellekt rivoji esa insonning o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishi, atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishi va ijobiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bundan ko'rinadiki, ruhiy salomatlik insonning umumiy farovonligi va hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Depressiya, tashvish va boshqa ruhiy muammolarni oldini olish va davolashda psixologiya muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda psixologiya inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatadigan fanlardan biridir. U bizga o'zimizni va boshqalarni tushunishga, stress va muammolarni yengishga, oilaviy hamda kasbiy hayotda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Ruhiy salomatlikni asrab-avaylash va hayot sifatini yaxshilash uchun psixologik bilimlardan ongli ravishda foydalanish muhimdir. Shunday ekan, psixologiyani o'rganish va uni hayotimizga tatbit etish orqali biz yanada baxtli, muvaffaqiyatli va barqaror shaxs bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayziyev.Y.M. Umumiy va tibbiy psixologiya.T.: "Ilm-ziyo", 2017.-176
 2. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya.T.:Toshkent-2010.
 3. G'oziyev.E.G'.Umumiy psixologiya.T.:2003.
 4. B.M.Umarov "Psixologiya" qo'llanma;
 5. M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" darslik;
 6. P.I.Ivanov va M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" darslik.
- Internet saytlari:
7. [https:// uz.m.wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org).
 8. <https://mymedic.uz>.
 9. [http:// library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz).

XALQARO KORPORATSIYALARDA UGLEROD IZINI KAMAYTIRISHGA YO'NALTIRILGAN VAZIFASI

Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ..v.b.dotsent
pushkina0990@gmail.com*

Axmedova Xumora Ibroxim qizi

*Andijon davlat universiteti "Menejment" mutaxassisligi magistranti
xumoraibragimovna@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolada asosan xalqaro korporatsiyalarda uglerod izini kamaytirishga yo'naltirilgan vazifalarga e'tibor qaratilgan hamda yirik kompaniyalar uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlimga zarar etkazishni cheklash uchun ko'proq harakat qilishlari kerakligi bundan tashqari, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yo'ritilib berilgan. Bu global muammo O'zbekiston uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi va bu borada olib borilayotgan ishlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *uglerod izi, xalqaro korporatsiya, Xalqaro Amnistiya tashkiloti, global isish, Candy Ofime, iqlim inqirozi, geologik omillar*

THE MISSION TO REDUCE THE CARBON FOOTPRINT OF INTERNATIONAL CORPORATIONS

Khusanova Zulfiya Rakhmatullayevna

*in economics Doctor of Philosophy (PhD) .. Associate Professor
pushkina0990@gmail.com*

Akhmedova Khumora Ibrohim qizi

*Andijan State University Graduate student of "Management" specialty
xumoraibragimovna@gmail.com*

Annotation: *The article mainly focuses on the task of reducing the carbon footprint of international corporations and highlights the fact that large companies should do more to reduce carbon emissions and limit damage to the climate. Information will be provided on the activities being done to reduce the carbon footprint of international corporations and on the need to take measures to reduce the carbon footprint today. It is discussed how important this global problem is for Uzbekistan.*

Key words: *Carbon dioxide, international corruption, International Amnesty organization, global warming, Candy Ofime, climate crisis, geological heats*

МИССИЯ ПО СОКРАЩЕНИЮ УГЛЕРОДНОГО СЛЕДА МЕЖДУНАРОДНЫХ КОРПОРАЦИЙ

Хусанова Зульфия Рахматуллаевна

По экономике Доктор философских наук (PhD). Доцент

pushkina0990@gmail.com

Ахмедова Хумора Ибрагимовна

Андижанский государственный университет Аспирант специальности

«Менеджмент» хумораibraгимовна@gmail.com

Аннотация: В статье основное внимание уделяется задаче сокращения углеродного следа международных корпораций и подчеркивается тот факт, что крупные компании должны делать больше для сокращения выбросов углекислого газа и ограничения ущерба, наносимого климату. Будет предоставлена информация о проводимой деятельности по снижению углеродного следа международных корпораций и о необходимости принятия мер по снижению углеродного следа уже сегодня. Обсуждается, насколько важна эта глобальная проблема для Узбекистана.

Ключевые слова: углерод, международная корпорация, Amnesty International, глобальное потепление, Candy Ofime, климатический кризис, геологические факторы.

KIRISH

Xalqaro korporatsiyalarda uglerod izini muammosi global iqtisodiyotning ekologik izini kamaytirishga qaratilgan kuchli harakatlarga qaramay, hal qilinmagan muammo hisoblanadi.

Xalqaro korporatsiya bir nechta mamlakatlarda operatsion faoliyat olib boradigan yirik kompaniyadir. Ularning bosh ofisi odatda bitta mamlakatda bo'ladi, ammo ularning filiallari, zavodlari va boshqa operatsion birliklari dunyoning turli burchaklarida joylashgan.

Xalqaro korporatsiyalar global iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi va dunyo miqyosida ish o'rinlari yaratadi, texnologiyalarni rivojlantiradi va tovarlar va xizmatlarga kirish imkoniyatini oshiradi. Biroq, ularning katta miqyosdagi faoliyati va global ta'siri ba'zi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin, masalan, mehnat sharoitlarini yomonlashishi, atrof-muhitga salbiy ta'sir va davlatlarning siyosiy ta'sirini zaiflashtirishi. Atrof muhitga ta'siri uglerod izi kabi salbiy ko'rinishda namoyon b'oladi.

Uglerod izi - bu sizning faoliyatingiz natijasida chiqadigan barcha issiqxona gazlari, shu jumladan karbonat angidrid (CO₂), metan (CH₄) va azot oksidi (N₂O) miqdori. Uning o'lchov birligi - tonna karbonat angidrid ekvivalenti (tCO₂e).

Uglerod izi quyidagi bir qancha toifalarga bo'linadi:

- to'g'ridan-to'g'ri emissiyalar: faoliyat natijasida to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan issiqxona gazlari, masalan, transport vositalaridan chiqadigan chiqindi gazlar, binolarni isitishdan chiqadigan gazlar va boshqalar.

- bilvosita emissiyalar: faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan, ammo iste'mol qilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida chiqadigan issiqxona gazlari, masalan, elektr energiyasini ishlab chiqarishdan chiqadigan gazlar, tovarlarni tashishda chiqadigan gazlar va boshqalar.

Uglerod izi bir qancha omillarga bog'liq:

1. Energiya iste'moli: qancha energiya iste'mol qilinsa, uglerod izi shunchalik yuqori bo'ladi.

2. Transport: transport vositalaridan foydalanish uglerod iziga katta salbiy ta'sir qiladi.

3. Oziq-ovqat iste'moli: hayvonot mahsulotlarini ishlab chiqarish o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaraganda ko'proq uglerod chiqaradi.

4. Tovar va xizmatlarni iste'mol qilish: qancha tovar va xizmatlarni iste'mol qilinishi uglerod izini ko'lamini yuqori bo'lishini anglatadi.

Uglerod izini kamaytirish bu global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim qadamdir. Xalqaro korporatsiyalarda uglerod izini muammosi global iqtisodiyotning ekologik izini kamaytirishga qaratilgan kuchli harakatlarga qaramay, hal qilinmagan muammo hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi va uglerod izi bo'yicha tadqiqotlar bo'yicha bir qancha olimlar o'z izlanishlarini olib boradi.

Pennsylvania Davlat Universiteti professori Michael E. Mann iqlim o'zgarishi bo'yicha taniqli olimlaridan biri. Uning tadqiqotlari iqlim o'zgarishiga sabab bo'lgan inson faoliyatini aniqlashga qaratilgan.¹⁶

NASA Goddard Kosmik Tadqiqotlar Instituti sobiq direktori James Hansen iqlim o'zgarishi haqida ogohlantirish bilan tanilgan. Uning tadqiqotlari issiqxona gazlarining atmosferadagi ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.¹⁷

Texas Tech Universiteti professori Katharine Hayhoe iqlim o'zgarishi bo'yicha faol jamoatchilik arboblardan biri. Uning tadqiqotlari iqlim o'zgarishining insoniyatga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.¹⁸

MIT professori Kerry Emanuel trofik siklonlarning intensivligi va chastotasi bilan iqlim o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. "Climate primer" kitobida iqlim muammolari va ularda bo'layotgan o'zgarishlar haqida batafsil yoritib bergan.¹⁹

Uglerodni saqlash va utilizatsiya qilish bo'yicha bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan. Global CCS instituti direktori Klaus Lackner esa

¹⁶https://twitter.com/MichaelEMann/status/1860055685498831325?ref_src=twsrc%5Egoogle%7Ctwcamp%5Eserp%7Ctwgr%5Etweet%7Ctwtr%5Etrue

¹⁷ <http://www.worldcat.org/oclc/32152921>

¹⁸ <https://katharinehayhoe.com/>

¹⁹ <https://emanuel.mit.edu/>

uglerodni havodan yig'ish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi.²⁰

Kaliforniya Texnologiya Instituti professori G. Peter Robertson uglerodni geologik saqlash texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi.²¹

Shuningdek, Harvard Universiteti professori Daniel Nocera sun'iy fotosintez orqali quyosh energiyasini yoqilg'iga aylantirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi.²²

Arxitektor va dizayner bo'lgan William McDonough qayta tiklanuvchi materiallar va chiqindisiz ishlab chiqarish kontseptsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.²³


Kimyogar va dizayner Michael Braungart "Cradle to Cradle" kontseptsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan.²⁴

Ushbu olimlar faqatgina misollardan biridir. Uglerod izini kamaytirish bo'yicha izlangan ko'plab olimlar bor, ular turli sohalarda ishlaydi va muammoning turli jihatlarini o'rganishadi.

Neft va gaz sanoatining kelajagi uning uglerod izini boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Ishlab chiqarishdan tortib iste'molga qadar etkazib berish zanjiri bo'ylab chiqindilarni kamaytirish sanoat va hukumat o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Sanoatning uglerod izini kamaytirish bo'yicha tashabbuslar katta yordam berishi mumkin. Biroq, undan ham katta va murakkab muammo foydalanuvchilar va iste'molchilar tomonidan yoqiladigan yoqilg'i chiqindilari bilan bog'liq.

Change in global emissions from fossil fuels by country, 2018-2021



²⁰ <https://sustainability-innovation.asu.edu/person/klaus-lackner/>

²¹ <https://research-repository.uwa.edu.au/en/persons/peter-robertson>

²² <https://www.chemistry.harvard.edu/people/daniel-g-nocera>

²³ <https://mcdonough.com/>

²⁴ <https://michaelbraungart.com/>

1-rasm 2018-2021 yillarda yoq'ilg'i chiqindilarining davlatlar o'rtasidagi ulushi²⁵

Global qazib olinadigan yoqilg'i chiqindilari birinchi navbatda ko'mir, neft va tabiiy gazning yonishi natijasida yuzaga keladi. Ko'mir boshqa qazilma yoqilg'iga qaraganda ko'proq emissiya uchun javobgardir, bu global qazilma CO₂ emissiyasining taxminan 41% ni tashkil qiladi. Neft qazib olinadigan CO₂ ning 32% ni tashkil qilgan holda ikkinchi o'rinda turadi, gaz esa 21% ni tashkil qiladi. Bu foizlar dunyo miqyosida iste'mol qilinadigan har bir qazib olinadigan yoqilg'i miqdorini, shuningdek, CO₂ intensivligidagi farqlarni aks ettiradi. Ko'mir natijasida ishlab chiqarilgan issiqlik yoki energiya birligiga eng ko'p CO₂ chiqariladi, keyin esa neft va tabiiy gaz. 2019-yildagi pandemiyadan oldingi chiqindilar bilan taqqoslaganda, GCP 2021-yilda gaz emissiyasini 2 foizga va ko'mir emissiyasini 1 foizga oshirishni rejalashtirmoqda. Neft chiqindilari 2019 yil darajasidan deyarli 6% past bo'lib qolishi mumkin, bu esa transportdan foydalanishdagi doimiy o'zgarishlarni aks ettiradi. 2018 va 2021 yillar oralig'idagi har bir yil uchun umumiy emissiyalar, shuningdek, chiqindilarning o'zgarishi uchun javobgar bo'lgan yoqilg'ilar quyidagi rasmda ko'rsatilgan.²⁶

Yoqilg'ilardan (qora chiziqlar) yillik global CO₂ emissiyasi va yoqilg'i (rangli chiziqlar) bo'yicha yillar o'zgarishining omillari. Salbiy qiymatlar emissiyaning kamayishini ko'rsatadi. E'tibor bering, y o'qi noldan boshlanmaydi. Global uglerod loyihasidan olingan ma'lumotlar; Highcharts yordamida Carbon Brief tomonidan grafik²⁷

Yirik kompaniyalar uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlimga zarar etkazishni cheklash uchun ko'proq harakat qilishlari kerak.

Xalqaro Amnistiya tashkilotining iqlim bo'yicha adolat tadqiqotchisi Candy Ofime²⁸ bugungi kunda 51 ta yirik kompaniyada global isishni xalqaro miqyosda kelishilgan 1,5 ° C darajasida ushlab turish uchun issiqxona gazlari chiqindilarini cheklash uchun juda kam ish qilayotganlarini ko'rsatgan tadqiqotlarga munosabat bildirgan holda: "Global isishdan eng ko'p zarar ko'rgan odamlar iqlim inqirozining oldingi chizig'ida yashovchi marginal jamoalardir. Ushbu topilmalar shuni ko'rsatadiki, allaqachon xavf ostida bo'lganlar minglab kilometr uzoqlikdagi boshqaruv kengashi zallarida shakllangan korporativ iqlim mas'uliyatsizligi madaniyati narxini to'lashda davom etadilar. Ushbu topilmalar shuni ko'rsatadiki, eng zaif odamlar korporativ iqlimning mas'uliyatsizligi madaniyati narxini to'lashda davom etadilar".

Candy Ofime, Xalqaro Amnistiyaning iqlim bo'yicha adolat tadqiqotchisi "Iqlim inqirozining kuchayib ketishi va milliardlab odamlarning inson huquqlari buzilishining oldini olish uchun zarur bo'lgan shoshilinch choralarni ko'rish o'rniga, ko'plab yirik kompaniyalar iste'molchilarni, aktsiyadorlarni va soliq to'lovchilarni yashil yuvish va

²⁵

https://www-carbonbrief-org.translate.goog/global-co2-emissions-have-been-flat-for-a-decade-new-data-reveals/?_x_tr_sl=auto&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp

²⁶

<https://www.carbonbrief.org/global-co2-emissions-have-been-flat-for-a-decade-new-data-reveals/>

²⁷

https://www-carbonbrief-org.translate.goog/global-co2-emissions-have-been-flat-for-a-decade-new-data-reveals/?_x_tr_sl=auto&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp

²⁸

<https://www.hrw.org/about/people/candy-ofime>

bo'sh garovlar bilan chalg'itishga harakat qilmoqda. "Bular har doim emissiyalarni sezilarli darajada kamaytirish bo'yicha noaniq rejalar, isbotlanmagan texnologiyalarga tayanish yoki shubhali uglerod hisobi yoki kompensatsiya sxemalarini o'z ichiga oladi.

Ayni paytda, ko'plab fotoalbom yoqilg'i kompaniyalari odatdagidek biznes yuritib, o'z faoliyatini kengaytirishda davom etmoqdalar. "Hukumatlar endi ko'pchiligi davlatga tegishli yoki qo'llab-quvvatlanadigan yirik korporativ sub'ektlarni emissiyalarni chinakam qisqartirishni tezlashtirishga majburlovchi qoidalar va siyosatlarni qabul qilishlari kerak va global isishni yumshatish uchun hech narsa qilmayotganlarga qarshi qat'iy harakat qilishlari kerak."²⁹

Evropa Komissiyasi bu hafta 2030 yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarining 55 foizga qisqarishi va asrning o'rtalariga kelib toza nol chiqindilariga erishish bo'yicha ulkan rejaning bir qismi sifatida qayta tiklanadigan energetikaning ulushini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi, deya ta'kidladi.

Ushbu harakat 16 sentyabr chorshanba kuni komissiya prezidenti Ursula fon der Lyayen Bryusseldagi Evropa parlamenti oldidagi Ittifoq davlatidagi birinchi murojaatida e'lon qilganida tasdiqlanadi.

Evropaning COVID-19 inqiroziga qarshi misli ko'rilmagan iqtisodiy munosabati "iqlimsiz neytral iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish uchun noyob imkoniyat yaratmoqda", deya ta'kidlaydi Evropa komissiyasi payshanba kuni e'lon qilinishi kutilayotgan hujjatda.

Kelgusi etti yilni (2021-2027) qamrab oladigan 1,8 trillion evro miqdoridagi byudjet va koronavirusni tiklash rejasi bilan Evropa Ittifoqi hozirgi kunda "Evropa Ittifoqi biznesini va sanoatini global izdoshlarga aylantirish" uchun yaxshi mavqega ega, bu esa yanada yashil va bir-biriga bog'langan iqtisodiyot uchun kurashda; EURACTIV tomonidan olingan dasturiy hujjat.

"Agar 2030 yilga kelib chiqindilarni kamaytirish 1990 yilga nisbatan 55 foizga kamaygan bo'lsa, bu iqtisodiy jihatdan ham maqsadga muvofiq va Evropa uchun ham foydalidir", - deyiladi hujjatda, iqtisodiy va iqtisodiy jihatdan chuqur o'rganishga asoslanib, e'lon qilinadigan ma'lumotlarga asoslanib. payshanba kuni yangi iqlim takliflari bilan birgalikda.


2030 yilgi iqlim maqsadi - bu Evropani 2050 yilgacha dunyodagi birinchi iqlim neytral qit'asiga aylantirish va ifloslanish darajasini nolga kamaytirishga qaratilgan Komissiyaning Yashil bitimining asosiy qismidir.³⁰

NewClimate Institute va Carbon Market Watch ³¹ tomonidan ishlab chiqarilgan yillik tadqiqot Korporativ iqlim mas'uliyati monitoringi avtomobilsozlik, energetika, moda, qishloq xo'jaligi va chakana savdo sohalaridagi 51 yirik kompaniyaning 2030 yilga qadar iqlim bo'yicha majburiyatlarini ko'rib chiqdi.

²⁹ <https://www.amnesty.org/en/latest/news/2024/04/global-g7-phase-out-of-coal-power-must-come-faster-to-protect-those-on-the-frontline-of-the-climate-crisis/>

³⁰ <https://srcyrl.dsisolar.com/news/eu-s-2030-climate-plan-makes-case-for-55-emis-38232104.html>

³¹ <https://newclimate.org/what-we-do/topics/carbon-markets>



2-rasm- Bir kishi boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha emissiya. (daromad guruhiga asoslangan)³²

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 2016-2022 yillar oralig'ida karbonat angidrid chiqindilarining 80 foizi faqat 57 tsement yoki qazib olinadigan yoqilg'i kompaniyalari tomonidan kuzatilishi mumkin. Shell yaqinda issiqxona gazlarini kamaytirish maqsadlarini qisqartirdi va hozirda Gollandiya sudining 2021 yildan boshlab mutlaq uglerod chiqindilarini, shu jumladan o'zi sotadigan neft va gaz mahsulotlarini 2030 yilgacha 45 foizga kamaytirishi kerakligi haqidagi qaroriga shikoyat qilmoqda. Xalqaro Amnistiya, qazib olinadigan yoqilg'idan tez, adolatli va moliyalashtirilgan bosqich va qayta tiklanadigan energiyaga adolatli o'tish.³³

Boshqa issiqxona gazlari atmosferada kamroq miqdorda mavjud, ammo ular kattaroq isinish ta'siriga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, metan 2021 yilda Yevropa Ittifoqining issiqxona gazlari emissiyasi ta'sirining 12 foizini tashkil etdi.³⁴

Ba'zi Evropa Ittifoqi issiqxona gazlari (GHG) emissiyasini keskin kamaytirish uchun choralar ko'rmoqda, chunki ular iqlim o'zgarishi bilan bog'liq. Eng mashhur issiqxona gazi karbonat angidrid (CO₂), ammo atmosferada kamroq miqdorda mavjud bo'lgan boshqalar kattaroq isinish ta'siriga ega bo'lishi mumkin. Issiqxona gazlari har xil global isish potentsialiga ega bo'lganligi sababli, ularning ta'siri odatda taqqoslashni mazmunli qilish uchun CO₂ ekvivalentiga aylanadi. 2021 yilda Evropa Ittifoqining iqtisodiy faoliyati natijasida hosil bo'lgan issiqxona gazlari emissiyasi 3,6 milliard tonna CO₂ ekvivalenti tashkil etib, bu esa 2008 yilga nisbatan 22%ga kam.³⁵

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish O'zbekistonning strategik vazifasi — Iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishining asosiy muammolaridan biriga aylandi, dedi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Dubayda bo'lib o'tgan COP28 sammitida. U “yashil” iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish “Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi” ekanini ta'kidladi.

³² <https://nia.eco/2021/11/12/24301>

³³ <https://srcyrl.dsisolar.com/news/eu-s-2030-climate-plan-makes-case-for-55-emis-38232104.html>

³⁴ https://www.europarl-europa-eu.translate.goog/topics/en/article/20230316STO77629/climate-change-the-greenhouse-gases-causing-global-warming?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp&_x_tr_hist=true

³⁵ O'sha manba

Uning ta'kidlashicha, Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p, so'nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo'qoldi.³⁶

“Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo'ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo iflaslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va ko'plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmushi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda”

Misol. O'rtacha hisob-kitoblarga ko'ra, global miqyosda bir kishi kuniga taxminan 4-12 kg CO₂ ekvivalenti uglerod izini chiqaradi. Bu juda keng diapazondagi raqam bo'lib, aniq son har bir shaxs uchun farq qiladi. Ba'zi hisob-kitoblar kuniga 5 kg CO₂ atrofida o'rtacha ko'rsatkichni keltiradi, lekin bu faqat o'rtacha va real holatda farq qilishi mumkin. Buni aniqlash uchun bir qancha omillar ta'sir qiladi.³⁷

Yashash joyi: Shaharlarda yashovchilar odatda qishloqlarda yashovchilarga qaraganda ko'proq uglerod izini chiqaradilar, chunki ular transport vositalaridan ko'proq foydalanadilar va ko'proq energiya sarflaydilar.

Hayot tarzi: Avtomobil foydalanish chastotasi, parvozlar soni, go'sht iste'moli miqdori, energiya sarfi (uy isitish, yoritish va boshqalar) kabi omillar uglerod iziga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ish turi: Ba'zi kasblar boshqalarga qaraganda ko'proq transport vositalaridan foydalanishni yoki energiya sarfini talab qiladi.

Iste'mol odatlari: Xarid qilinadigan mahsulotlarning kelib chiqishi va transport masofasi uglerod iziga ta'sir qiladi.

Davlat: Rivojlangan mamlakatlarda yashovchilar rivojlanayotgan mamlakatlardagi odamlarga qaraganda ko'proq uglerod izini chiqaradilar.

Shavkat Mirziyoyev Parij shartnomasi doirasida Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmni tezroq kelishishga chaqirdi. Shu ma'noda, Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida ishlab chiqilayotgan Moslashuv strategiyasi qayd etildi.³⁸

Davlat rahbarimiz “Yo'qotish va zararlar” global jamg'armasini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan qarorni yuksak baholadi. Ushbu mexanizmlar Jahon banki va xalqaro moliya institutlari tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi, eng avvalo, iqlim o'zgarishidan katta aziyat chekayotgan mamlakatlarga salmoqli yordam beradi.³⁹

Global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo'lishi zarurligi, bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari albatta inobatga olinishi juda muhimligi qayd etildi. Bu dolzarb muammoni muntazam ravishda, shu jumladan “Katta yettilik” va “Katta yigirmalik” formatlari kun tartiblarida ko'rib chiqib borish taklif qilindi. Orolbo'yi hududini “Innovatsiyalar, texnologiyalar

³⁶ Dubay shahrida o'tayotgan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasining (COP28) asosiy yalpi sessiyasi

³⁷ <https://www3.epa.gov/carbon-footprint-calculator>

³⁸ <https://president.uz/oz/lists/view/6897>

³⁹ (<https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/01/damage-fund/>)

va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirish uchun davlat rahbari bu yerda ilg’or bilim, tajriba va yechimlarni qo’llash maqsadida “Iqlim texnologiyalari” xalqaro ekspo-xabini yaratishda barchani yaqin hamkorlikka taklif etdi.

Bundan tashqari, prezidentimiz Toshkentdagi Green University negizida tashkil etilayotgan Iqlim ilmiy forumi doirasida yaqin ilmiy almashinuvni yo’lga qo’yish va qo’shma tadqiqotlar o’tkazishga chaqirdi. Yer degradatsiyasining oldini olish, suvdan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatli ta’minlash va boshqa o’tkir masalalar forumning kun tartibidan joy oladi.⁴⁰

Xulosa. Xalqaro korporatsiyalar uchun uglerod izini kamaytirish muhim va shoshilinch vazifadir. Bu borada quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega:

- * uglerod neytrallik strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, maqsadli va aniq qadamlar bilan uglerod emissiyasini kamaytirish bo'yicha strategiya yaratish va uni barcha darajalarda amalga oshirish.

- * boshqaruv darajasida uglerod emissiyasi masalasiga e'tibor qaratish. Kompaniyaning boshqaruvi emissiyalarning kamayishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish va uni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatish.

- * maksimal shaffoflikka erishish va uglerod emissiyasi va emissiyalarni kamaytirish choralarini oshkor qilish, ular haqida ochiq ma'lumot berish.

- * korporativ ijtimoiy javobgarlik (KIJ) siyosatini emissiyalarni kamaytirishga yo'naltirish. KIJ doirasida uglerod izini kamaytirishga e'tibor qaratish va bu borada maqsadli dasturlarni amalga oshirish.

- * energiya samaradorligini oshirish: binolarni modernizatsiya qilish, energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni kamaytirish kabi usullar bilan energiya sarfini kamaytirish.

- * qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish: quyosh, shamol va geotermal energiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni amalga oshirish.

- * tashish usullarini optimallashtirish: transport vositalarining yoqilg'i samaradorligini oshirish, jamoat transportidan foydalanishni rag'batlantirish, yuklarni optimal tarzda tashish.

- * uglerodni ushlab qolish va saqlash texnologiyalarini rivojlantirish: emissiyalarni kamaytiradigan va karbonni ushlab qoladigan yangi texnologiyalarga investitsiyalarni jalb qilish.

- * xodimlarni uglerod emissiyasi va uni kamaytirishga yo'naltirilgan bilimlar bilan ta'minlash: Korporatsiyaning barcha xodimlariga emissiyalarni kamaytirishga oid tushunchalarni tushuntirish va ularni shunga o'rgatish.

- * uglerod emissiyasi masalasiga e'tibor qaratadigan madaniyat yaratish: korporativ madaniyatda uglerod emissiyasi masalasiga e'tibor qaratib, barcha xodimlarni bu borada mas'uliyatli bo'lishga undash.

⁴⁰ <https://gov.uz/oz/eco/news/view/26695>

* boshqa korporatsiyalar, hukumatlar va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish: uglerod izini kamaytirish uchun boshqa tomonlar bilan hamkorlik qilib, sinergiyani yaratish hamda uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Bu vazifalarni bajarish orqali xalqaro korporatsiyalar nafaqat o'zlarining uglerod izini kamaytirishga, balki barqaror rivojlanishga ham hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World economy forum ilmiy jurnali
2. ↑ „Assigning exploration risks : Risk and Play Mapping - Exploration & Production Geology“. www.epgeology.com. 2011-yil 10-iyulda asl nusxadan arxivlangan.
3. ↑ „Coordinating Committee for Geoscience Programmes in East and Southeast Asia“. www.ccop.or.th. 2016-yil 12-martda asl nusxadan arxivlangan.
4. “статистика парниковых газов” google ma'lumotlari
5. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/26695>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/6897>
7. <https://newclimate.org/what-we-do/topics/carbon-markets>
8. <https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/22/1714127373.pdf>
9. https://www-europarl-europa-eu.translate.goog/topics/en/article/20230316STO77629/climate-change-the-greenhouse-gases-causing-global-warming?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp&_x_tr_hist=true